ISBN 978-9910-9173-9-4

ATAXO‘JAYEVA SH.A.

# XORIJIY TIL O‘QITUVCHILARI SOTSIAL KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**UNIVERSITY OF BUSINESS AND SCIENCE**

**ATAXO‘JAYEVA SH.A.**

# XORIJIY TIL O‘QITUVCHILARI SOTSIAL KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI

**«GRAND KONDOR PRINT»**
**TOSHKENT – 2026**

**UDK:** 157.247:71.29:35
**KBK:** 123.217.147
**A 055**

**ATAXO‘JAYEVA SH.A.**
**XORIJIY TIL O‘QITUVCHILARI SOTSIAL KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI. / [Monografiya]. – Toshkent.: “GRAND KONDOR PRINT”, 2026 y., 104 b.**

Mazkur monografiyada bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida sotsial intellektni rivojlantirishning psixologik asoslari, mexanizmlari hamda uni shakllantirish jarayonida ta’lim-tarbiyaning o‘zaro bog‘liqligi ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Asarda shaxsning ijtimoiy idrok, empatiya, kommunikativ madaniyat va emotsional sezgirlik kabi tarkibiy qismlarini rivojlantirishga qaratilgan psixologik yondashuvlar yoritilgan.

Muallif tomonidan ingliz tili fani o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi jarayonida sotsial intellektni shakllantirishning samarali metodlari, shuningdek, neyropsixologik va pedagogik omillar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir tahlil etilgan. Monografiyada ilg‘or xorijiy tajribalar, zamonaviy tadqiqot natijalari va milliy ta’lim tizimi sharoitida ularni qo‘llash yo‘llari keng yoritilgan.

Monografiya oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari, magistrantlar, talaba yoshlar, shuningdek, psixologiya va pedagogika sohasidagi tadqiqotchilar hamda ushbu muammo bilan qiziquvchi mutaxassislar uchun mo‘ljallangan.

**Mas’ul muharrir:**
Ataxo‘jayeva Shaxlo Anvarovna – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Taqrizchilar:**
**Avlayev Orif Umiro**vich – Chirchiq davlat pedagogika universiteti professori, psixologiya fanlari doktori (DSc)
**Fayzullayev Mirzaodil Mirzamurodovich**– University of Business and Science, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Monografiya University of Business and Science Ilmiy –texnik Kengashining 2025 yil 30-oktyabrdagi 3-sonli majlisida nashrga tavsiya etilgan.

**ISBN 978-9910-9173-9-4**

**© ATAXO‘JAYEVA SH.A. 2026**
**© « GRAND KONDOR PRINT» 2026**

## KIRISH

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon ta’lim tizimining muhim omillaridan biri bo‘lajak o‘qituvchilarning sotsial intellekt va kasbiy-pedagogik faoliyati samaradorligini oshirish, turli ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy munosabatlarning integratsiyalashuvi, axborot uzatish va muloqot qilishda asosiy vosita sanalgan xorijiy tillar, xususan ingliz tili bo’yicha o‘qituvchilarning faolligiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xorijiy tillari mutaxassislarini tayyorlashda CEFR (Common European Framework of Reference for Language) malaka talablari asosida oliy ta’lim mazmuni va sifatini xalqaro darajaga ko‘tarish[1], APA[2]ga ko’ra bo‘lajak o‘qituvchi kasbiy faoliyatida sotsial intellektning ustuvorligi, uning faoliyat samaradorligini oshirish, ijobiy ta’sir qiluvchi ijtimoiy-psixologik omillarni shakllantirish hamda o‘qituvchi sotsiolingvistik kompetentligini takomillashtirish dolzarb muammolardan bo’lib qolmoqda.

Jahon ta’lim va ilmiy markazlarida o‘qituvchi shaxsning kamoloti, unga ta’sir etuvchi sotsial intellektning ichki va tashqi omillarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari o‘lib borilmoqda. Bu borada o‘qituvchi sha’ninini tiklashi, uning jamiyatdagi mavqeini mustahkamlash uchun olib borayotgan siyosati bugun butun jahon siyosatchilari tomonidan e’tirof etilishi, uning timsoli zamon talabi darajasida kamol topishi hamda boshqalar uchun o‘rnak bo‘la olishi, shuningdek, o‘qituvchi yillar o‘tsa-da o‘z ustida ishlashi va zamon bilan hamnafas bo‘lishida sotsial intellekti zarur va shart ekanligi, uni shakllantirishga yo’naltirilgan masalalarga e’tibor qaratish zarurati kuzatilmoqda.

Respublikamizda so‘nggi yillarda ta’lim jarayoniga oid siyosatlarga qo‘yilgan yuksak talablar o‘qituvchi faoliyatini yanada chuqurroq o‘rganish bilan birga, uning o‘ziga xos ijtimoiy-psixologik jihatlarini tadqiq qilish bugungi zamonning talabi darajasiga aylanib bormoqda. **“...xorijiy tillarni o‘rgatishni ta’lim siyosatining**

[1] https://www.coe.int/en/web/language-policy/cefr

[2] https://www.apa.org/about

**ustuvor yo‘nalishi sifatida rivojlantirish, ushbu yo‘nalishda ta’lim sifatini tubdan oshirish, sohaga malakali pedagoglarni jalb etish hamda aholining xorijiy tillarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshirish[3]”**, buning natijasi o‘laroq, o‘qitish tizimidagi innovatsiyalar, yangi texnologiyalar, metod va amaliy ishlar natijalari bo‘lajak o‘qituvchilarning sotsial intellektlarini rivojlantirish dolzarb masala ekanini ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da belgilangan vazifalarni samarali amalga oshirish to‘g‘risida”gi[4] Farmoni, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi 610-son “Ta’lim muassasalarida chet tillarni o‘qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 19-iyuldagi 606-son “Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni maqsadli tayyorlash tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarorlari hamda boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

[3] Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 20.05.2021-y., 07/21/5117/0472-son, 15.04.2022-y., 06/22/106/0314-son, 12.05.2022-y., 07/22/241/0408-son. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son qarori

[4] Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 29.01.2022 й., 06/22/60/0082-сон Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ – 60-сонли Фармони.

# I BOB. BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI TAYYORLASHDA SOTSIAL INTELLEKTNI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK–PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA

## 1.1.Sotsial intellekt psixologik tadqiqot predmeti sifatida

Zamonaviy jamiyatda shaxsning ijtimoiylashuvi va kasbiy rivojlanishi jarayonida sotsial intellekt muhim rol o‘ynaydi. Pedagogika kasbi uchun sotsial intellekt muammosi katta ahamiyatga ega. Biroq, muammoning dolzarbligi, asosan, bo‘lajak o‘qituvchilarning sotsial intellektining o‘ziga xos xususiyatlarini yetarli darajada o‘rganilmaganligi bilan bog‘liq. Yana bir tomondan, O‘zbekistonda bo‘lajak ingliz tili fani o‘qituvchilarining sotsial intellektini rivojlantirish darajalari hali maxsus o‘rganilmagan. Xorijiy manbalarda mavjud bo‘lgan, intellekt darajasini aniqlashga qaratilgan turli usullarga qaramay, ularning ko‘pchiligi o‘zbek tiliga tarjima qilinmagan. Bo‘lajak ingliz tili fani o‘qituvchilarini o‘rganishga oid psixologik nazariy va ilmiy tadqiqotlarda sotsial intellektning rivojlanishi haqida fikrlar mavjud emas.

Uzluksiz ta’limda faoliyatini boshlagan shaxslarning kasbiy malakalarini rivojlantirish uchun ularning sotsial intellektlarini rivojlantirish zarur. Bundan shuni anglash mumkinki, bo‘lajak ingliz tili fani o‘qituvchilaridagi kasbiy faoliyat sotsial intellektning ahamiyatini tadqiq etishda talabalarning ijtimoiylashuvi va lingvistik qobiliyatlarining psixologik jabhalariga tayanib izohlash juda muhim masaladir. Ammo, hozirgacha psixologiya fanida bo‘lajak ingliz tili fani o‘qituvchilarining sotsial intellekt xususiyatlarini baholashga oid asosiy nazariy yondashuvlar ko‘p uchramasa-da, Rossiya Federatsiyasi psixolog olimlarining ishlaridan ba’zi ma’lumotlarni olishimiz mumkin. Shuningdek, ijtimoiy intellekt muammosi psixologiyaning bir qator olimlari tomonidan turli sohalarda o‘rganildi: sotsial psixologiyada − G.M. Andreyeva, Ye.A. Abulxanova-Slavskaya, V. P. Bederxanova, A. A. Bodalev, V.A. Labunskaya, D. Mayers, Ye.S. Mixaylova, A.J.I. Yujaninova; umumiy va yosh psixologiyasida D.A. Leontev, S.L.Rubinshteyn, A.V. Petrovskiy [117].

Ijtimoiy intellektga ilk bora R.D.Kaverina [60] ta’rif berishga uringan va u bu

tushunchani “ijtimoiy senzitivlik” tushunchasi bilan bog‘lagan. U odamlarda intuitsiya negizida individual “evristikalar” shakllanadi va shaxs boshqa kishilar bilan o‘zaro munosabatlariga oid xulosalarga kelishda ulardan unumli foydalanadi, deb ta’kidlaydi. Ular ishonchli bo‘lib, prognoz qilish jarayonida qo‘l keladi. Uning negizida maxsus va doimiy tafakkur jarayoni yotadi.

Xorijda sotsial intellektni tadqiq etish bo‘yicha izlanishlarni X.J. Ayzenk, J.P.J.P. Gilford, E.L.Torndayk kabi olimlarning ishlarida ko‘rish mumkin [76]. E.L. Torndayk [76] sotsial intellektni umumiy intellektning bir qismi sifatida fanga kiritdi va ta’lim jarayonida sotsial intellektga katta e’tibor berdi. Uning fikricha, sotsial intellekt – bu shunday ijtimoiy-madaniy sharoitlar ta’sirida umumiy intellektning rivojlanishi natijasi bo‘lib, u shaxsning jamiyat talablariga moslasha olish qobiliyatidir. “Ijtimoiy intellekt” tushunchasini birinchi marta 1920-yilda E.Torndayk psixologiya fanida qo‘llagan. U bu tushuncha yordamida shaxslararo munosabatlarni oldindan ko‘ra bilishlikni tasvirlaydi va uni insonlar o‘rtasidagi munosabatlarga davr nuqtai nazari bilan yondashishni qiyoslaydi. E.Torndaykning ta’kidilashiga ko‘ra, intellektning quyidagi turilari mavjud: abstrakt intellekt – bu abstrakt, verbal va matematik belgilarni tushunish va ularning yordami bilan turli aqliy harakatlarni amalga oshirish qobiliyatidir, ijtimoiy intellekt – odamlarni tushunish va ular bilan munosabatlarga kirishish qobiliyatidir.

1937 yili G.Ollport ijtimoiy intellektni odamlarni to‘g‘ri baholay bilish, ularning hulqini to‘g‘ri bashorat qilish va shundan kelib chiqqan holda ular bilan munosabatga kirishish qobiliyati, deb tavsiflaydi. U boshqa odamlarni yaxshi tushunishni ta’minlovchi bir qator sifatlarni ajratib ko‘rsatgan: bu sifatlar tarkibiga ijtimoiy intellekt alohida qobiliyat sifatida kiritilgan. 1960-yillarda ijtimoiy bilish va kommunikativ kompetentlikka oid ishlar paydo bo‘la boshladi. Shu yillarda umumiy persepsiya muammosiga odamlarning bir-birlarini tushunishlariga katta e’tibor qaratilgan va hosil bo‘lgan ijtimoiy intellektning tabiati va tarkibi to‘g‘risidagi konseptual tasavvurlar asosida uni o‘rganishning metodik apparatini yaratishga uringanlar. G.V. Ollport [95] sotsial aql-idrok – shaxsning inson-inson munosabati tizimida to‘g‘ri hukm qilish, ularning xatti-harakatlarini bashorat qilish va shaxslararo

munosabatlarda adekvat moslashishni ta’minlashning o‘ziga xos qobiliyati deb hisoblaydi. Uning tadqiqotlarida sotsial intellekt shaxsning muhitga moslashishi sifatida qaralgan, ya’ni hayotiy muammolarni hal qilish qobiliyati deya e’tirof etilgan.

Sotsial intellektning rivojlanish darajasiga ta’sir qiluvchi omillar orasida X.J. Ayzenk ijtimoiy-iqtisodiy holat, uning motivatsiyasi, madaniy omillar, ta’lim darajasi va boshqalarni ajratib ko‘rsatdi


Dastlab, Torndayk o’zining sotsial intellekt haqidagi ilg‘or tushunchasini shaxsning ijtimoiy ishlarni tushunish, ehtiyotkorlik, zukkolik, idrok va faoliyatning samaradorligini ta’minlash va namoyon bo‘lishi qobiliyati sifatida aniqlagan [76]. Ushbu tavsifda nerv sistemasining barqarorligi va faolligining asosiy mohiyati favqulodda vaziyatlarda to‘g‘ri yechim topishda umumiy intellektning o‘zigina yetarli emas, bunda shaxsning samarali va yaxshi tashkil etilgan ijtimoiy aloqalar va o‘zaro hamkorlik qila olish qobiliyatlarini ta’kidlaydi. XX asrning oxirida sotsial intellektni tadqiq etish, bu bir qator to‘siqlarga uchrasa-da, taraqqiyot sifatida baholandi. C.S. Vatkin [148] kabi olimlar buni jamiyatdagi voqealarda nerv sistemasi kuchining umumiy yondashuvi sifatida belgilaydilar [95]. Ijtimoiy intellektni o‘lchashga mo‘ljallangan birinchi ishonchli testni yaratgan J.P. Gilford uni umumiy intellekt omilidan mustasno bo‘lgan va eng avvalo hulq-atvorga oid bo‘lgan axborotlarni tushunishi bilan bog‘liq bo‘lgan intellektual qobiliyatlar tizimi sifatida o‘rgangan.

J.P. Gilford [106] ko‘proq konstruktiv yondashuvni qo‘llaydi va sotsial intellektni ijtimoiy ong, ijtimoiy munosabatlar, o‘zini va boshqalarning talablari, hissiy holati, mulohazalari va munosabatlarini boshqarish bilan bog‘liq bo‘lgan qo‘shimcha intellekt protseduralarining xilma-xil elementi ekanligini ta’kidlaydi. So‘nggi paytlarda Brislin Wortl, Uortli va Maknab sotsial intellektga jamoaviy muhit holatini umumiy tushunish, og‘zaki va yozma nutqni anglash, turli xil ijtimoiy status yoki murakkablik kabi jamoatchilik bilan muomala qilish qobiliyati sifatida ta’rif berdilar[21]. Ushbu nazariy konseptsiyani ta’riflashdagi bir-birini inkor etuvchi yoki bir-birini to‘ldiruvchi qarashlarga qaramay, olimlar o‘rtasida sotsial intellekt to‘g‘risidagi mavjud kelishuv bo‘lib, uni munosabatlarning tarkibiy bo‘lagi,

ijtimoiylashuvning ajralmas qismi ekanligidadir [14].

80-yillarda D.Kiting tomonidan yaratilgan testlar ahloqiy yoki odob bilan fikrlashni baholashga mo‘ljallangan edi. M.Ford va M. Tisak intellektni baholashning negizida muammoli holatlarning to‘g‘ri yechimini topish yotishini ta’kidlaydilar. Ular ijtimoiy intellekt axborotlarni qayta ishlash bilan bog‘liq bo‘lgan mental qobiliyatlarning aniq va mutanosib guruhini o‘z ichiga olishini ko‘rsata bildilar. Bu qobiliyat guruhi esa, o‘z o‘rnida “formal” tafakkur asosini tashkil qiluvchi va “akademik” intellekt testlari bilan tekshiriluvchi qobiliyatlardan tubdan farq qiladi. N.Kentor ijtimoiy intellektni odamlardagi hayotida bo‘layotgan hodisalarni avvaldan ko‘ra bilish va ulardan unumli foydalanish imkoniyatini beradigan kognitiv kompetentlikka tenglashtiradi.

Shu ma’noda, Kandeya, Leal, Barahona, Charrua, Matos, Franko, Oliveyra (2009) [22] sotsial intellekt haqida umumiy qarashlarini birlashtiradilar [1.1-*rasmga qarang]:*




**1.1-rasm. Kandeya, Leal, Barahona, Charrua, Matos, Franko, Oliveyrlaraning sotsial intellekt haqidagi umumiy konseptsiyasi**

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yuqoriy sotsial intellektga ega bo‘lgan

odamlar o‘ziga xos ochiqko‘ngil, g‘amxo‘r, mehribon, e’tiborli, moslashuvchan va bir qator ijtimoiy muammolarni hal etish qobiliyatlariga ega bo‘lishadi. (Birknerova, Frankovsky, & Zbihlejova, 2014) [30] Shuningdek, sotsial intellekti yuqori bo‘lgan insonlar ijtimoiy vaziyatlarda ko‘proq barqarorlikka ega, o‘zgalarning his-tuygularini tushuna oladilar, o‘z his-tuyg‘ularini osonlik bilan ifoda eta oladilar (Zirkel, 2000) [**Ошибка! Источник ссылки не найден.**]. Bundan tashqari yuqori sotsial intellekt egalari hamisha eng muhim vazifalarni bajarishadi: ijtimoiy nizolarni va muammolarni hal qilish, kelishmovchiliklarni muvofiqlashtirish va hokazo [23].

Ijtimoiy intellekt, shuningdek, o‘ziga ishonch, qat’iyatlilik, (Bartone, Eid, Jonsen, Laberg va Snook, 2009) his-tuyg‘ularni nazorat qilish (Zirkel, 2000) [**Ошибка! Источник ссылки не найден.**], yetakchilik (Goleman, Boyatzis va McKee, 2013) [19] va o‘z muvaffaqiyatini anglash (Aminpoor, 2013) kabi konstruktiv natijalar bilan bog‘liq. Ta’lim jarayonida o‘qituvchilar va o‘quvchilarning yoki bo‘lajak o‘qituvchilarning sotsial intellektining ta’siri haqida bir nechta takliflar berilgan [89]. Sotsial intellektning obro‘-e’tibor va nufuz bilan bog‘liqligini Meijs, Cillessen, Scholte, Segers va Spijkerman (2010) [78] aniqladilar. Bundan tashqari, talabalar va o‘quvchilarning ta’lim jarayonidagi muvaffaqiyatga erishishlari ularning sotsial intellektiga bevosita bog‘liqligini ham e’tirof etdilar. Olimlardan Soares, Francischetto, Peçanha, Miranda va Dutra (2013) [**Ошибка! Источник ссылки не найден.**] ning tadqiqotlari sotsial intellekt talabalarning ta’lim sohasidagi yutuqlarida asosiy komponent ekanini isbotlaydi. Ba’zi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, sotsial intellekti yuqori talabalar akademik jihatdan o‘rtacha tengdoshlari bilan solishtirilganda sotsial intellekti yuqori bo‘lganlari har sohadan yaxshi natija ko‘rsatadilar. Ammo talabalarda ijtimoiy jihatdan zaiflikni kelib chiqishi (Lopez-Zafra, Garsiya-Retamero va Martos, 2012) bu sotsial intellekt va ta’limdagi yutuqlarga erishish o‘rtasidagi korrelyatsiyadir [**Ошибка! Источник ссылки не найден.**]. Ta’lim sharoitida talabalar va o‘qituvchilarning o‘zaro ijtimoiy munosabatlarining e’tiborga loyiq jihati ijtimoiy intellekt bilan bevosita bog‘liqdir. Costa, Ripoll, Sánchez va Carvalho (2013) [32] talabalarni gender farqlari bo‘yicha ularning muammoni hal qilish jarayonini o‘rganishdi.

Ijtimoiy intellekt to‘g‘risida oddiy odamlar qanday tasavvurga ega ekanliklarini tushunish maqsadida R. Shternberg (1981) tadqiqot o‘tkazgan va natijada insonlar umumiy intellekt tushunchasiga quyidagilarni kiritishlarini ko‘rsatib o‘tgan:

1. Amaliy masalalarni hal qilish qobiliyati. Odam mantiqiy fikr yuritadi, muammoning barcha tomonlarini ko‘ra biladi; to‘g‘ri yechimga kela oladi, zarur axborotlarning original manbalariga murojaat etadi; barcha dalillarni eshitadi.

2. Verbal qobiliyat. Aniq va ravon tilda gapiradi; o‘qiganini yaxshi tushunish, lug‘at boyligi kuchli va yaxshi; yozma nutqida muammolarga duch kelmaydi; odamlar bilan oson va samimiy muomalaga kirishadi va hokazo.

3. Ijtimoiy kompetentlik. Boshqa odamlarni qanday bo‘lsalar, shundayligicha qabul qiladi; uchrashuvlarga kechikmaydi; to‘g‘ri xulosa va qarorlarga kela oladi; boshqalarning xohish va ehtiyojlarini seza biladi; qiziquvchan va hokazo.

V.Shternberg tadqiqotlarining natijasiga ko‘ra, shaxslarning “akademik intellekt”ni tasvirlash jarayonida keltirilgan tavsiflari “kundalik intellekt”ni tasvirlaganlarida keltirilgan tavsiflaridan farq qiladi. Umumiy intellektni juda ko‘p hollarda donolik deb biladilar.

Ijtimoiy intellekt mustaqil hodisami?

E.Torndayk ijtimoiy intellektni oddiy intellektdan farqli deya ta’kidlagan. Ko‘plab mualliflar (Kiting, J.P. Gilford) ijtimoiy intellektni akademik va formal intellekt qobiliyatlaridan farq qiluvchi mental qobiliyatlarning mustaqil guruhi sifatida tavsiflaydilar.

Tadqiqot natijasi shuni ko‘rsatdiki, erkak talabalar muammoni hal qilish jarayonida hissiy kechinmadan ko‘ra intellektual jarayondan kelib chiqib muammoga yondashishadi. Bundan shuni anglash mumkinki, talabalar o‘rtasida sotsial intellektning namoyon bo‘lishida gender farqlar bo‘lishi mumkin, ehtimol. Shuningdek, tadqiqotchilar sotsial intellektning kasbiy faoliyatdagi ahamiyatini axloqiy qarashlari uchun konstruktiv vaziyat deya ta’riflashgan. Ya’ni, turli kasb egalari ijtimoiylashuv jarayonida professional yondashuvlari bilan jamiyatdagi pozitsiyalarini mustahkamlaydilar va ijtimoiylashuv jarayonining rivojlanishiga o‘z ta’sirlarini o‘tkazadilar.

Olimlar jamoalari Pinto, Faria, Gaspar va Taveira (2015) [111] tadqiqot o‘tkazishar ekan, ular hayotning turli sharoitlarida o‘zgaruvchanlik, muvaffaqiyatga erishishga ta’sir ko‘rsatadigan va axloqiy professional qarashlarga imkon beradigan intellekt, muloqotchanlik, ijtimoiylashuv jarayonidagi ijobiy munosabatlarni sotsial inetellekt deb hisoblaydilar. Bundan tashqari ularning natijalari shuni ko‘rsatadiki, sotsial intellekt individual vaziyatlarga, insonlarning kasbiy rivojlanish doirasiga va vaqtga bog‘liq holda farqlanadi.


Sotsial intellektning ajralmas bo‘lagi bo‘lgan hissiy intellekt haqida fanga nimalar ma’lum va uni o‘rganish olimlarga nima berdi, degan dolzarb savollar ham bugun psixologiyadagi yetakchi savollardandir. Tadqoqotchilar orasida Mayer, Salovey, va Karuso (2004) [159] ijtimoiy intellekt uchun muhim element bo‘lgan hissiy intellektni to‘rt bo‘limga taqsimladilar:

Tuyg‘u va his tuyg‘ularni anglash qobiliyati;

Fikrni kuchaytirish uchun his-tuyg‘ular bilan mashq qilish qobiliyati;

O‘zining va o‘zgalarning his-tuyg‘ularini tushunish qobiliyati;

His-tuyg‘ularni tartibga solish qobiliyati *[1.2-rasmga qarang]*.




**1.2-rasm. Ijtimoiy intellektga aloqador hissiy intellektning to‘rt elementi**

Boshqa olimlar tomonidan his-tuyg‘ularni ochiq ifodalash yoki ularni yashirishga, cheklashga urg‘u berishar ekan, tajriba va yoshning ham insonning hissiy intellektiga ta’sirini aniqlashdi (McCrae, 2000) [76]. Tajribali insonlarda moslashuvchanlik, mulohazalilik, izlanuvchanlik, kreativlilik va individual

fazilatlarning yuqoriligi namoyon bo‘lsa, tajribasiz kishilarda yangilikdan qochadigan, an’anaviylikni ma’qul ko‘radigan va urf-odatlarga sodiqliklarini namoyon qiladilar (McCrae 2000) [76]. Xuddi shu tarzda, Mayer, Salovey va Karuso (2008) [73] hissiy intellektni o‘rganish va tadqiq qilishda bir qator kamchiliklarni tan oladilar, chunki hissiy intellekt hamon noaniq bo‘lib, hissiy intellekt tuzilishi va ta’riflanishini bir muncha murakkab jarayon deya ta’riflaydilar.

Insonlardagi muvaffaqiyatga bo‘lgan intilish, intellekt kuchi, iroda, moslashish, optimislik kabi psixosomatik fazilatlar hissiy intellekt asosida belgilanishi, baholanishi, talqin qilinishi kerak (Mayer, Salovey va Karuso, 2008) [73]. Bundan shuni anglash mumkinki, hissiy intellektning ta’siri juda keng va xilma-xildir. Shunga qaramay, olimlar tomonidan hissiy intellektni tartibga solish, qisqartirish va qayta jamlash, unga ma’lum bir tavsif berish ustida ishlanmoqda.

Fikrimizcha, sotsial intellekt erishish mumkin bo‘lgan yutuqlar, yoki kelgusidagi vaziyatning yakunini prognozlash qobiliyati bilan bog‘liq. Bu fikr boshqaruv ko‘nikmalari va muvaffaqiyatlar uchun yetakchi bo‘lgan komponent, ya’ni ijtimoiy intellektning shaxs kamolotidagi rolini belgilaydi.

Shuningdek, hissiy intellektning qo‘shimcha arxitipi mavjud bo‘lib, u ishonchlilik, ifodalilik, guruhga moslashish malakalarini o‘z ichiga oladi (Mayer, Salovey va Caruso, 2008) [161]. Edmond-Kiger, Taker va Yost (2006) [74] hissiy intellektdagi individual farqlarni qayd etdilar.

Innovatsion qobiliyat konstruktsiyasi uchun sotsial intellekt paydo bo‘ldi. Salovey va Mayer (1990) [124] tadqiqot maqsadida ijtimoiy intellektni innovatsion qobiliyat konstruksiyasi sifatida fanga kiritdilar. Keyinchalik u juda ko‘p qarama-qarshiliklarga va qizg‘in munozaralarga duch keldi, ammo sotsial intellekning ijtimoiy faoliyatga ta’sir samaradorligining noaniqligi tufayli bugungi kunlarda ham tadqiqot obyekti sifatida qolmoqda (Landy, 2006) [64]. Kimdir innovatsion qobiliyatni sotsial intellekt deb atagan, kimdir hissiy intellekt va hatto Goleman (2006) [94] innovatsion qobiliyatni odamlarning o‘zaro munosabatlari haqidagi yangi yo‘nalish deb ta’riflagan.

Sotsial intellekt fenomeni turli olimlar tomonidan qattiq tanqidga uchradi.

Ba’zi tadqiqotchilar bu faqat eski tushunchalarni o‘zgartirish – hissiy jarayonlarni baholash parametri yoki umumiy intellekt [78] deb tanqid qilishdi. Boshqa olimlar ijtimoiy intellektni nerv sistemasining kuchli paradigmasi sifatida tushuntiradilar, sotsial intellektni takomillashtirishda xatolarni topishni boshladilar (O‘Sullivan, 2007) [104]. Shu sababli, sotsial intellekt juda ko‘p tadqiqotchilarning e’tiborini tortdi va 2000 va 2006 yillarda mingdan ortiq maqolalar, kitoblar, tadqiqot ishlari va dissertatsiyalar aynan shu mavzu yuzasida bo‘ldi. Goleman butun e’tiborini intellektni o‘rganishga qaratdi: Garchi intellekt Salovey va Mayer (1990) [124] tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lsa-da, lekin u Golemanning kitobi bilan 1995 yilda tanilgan. Sotsial intellektning amaliy ahamyatliligini hozirda tasavvur qilish mushkul emas. Bugungi kunda tadqiqotchilar akademik hayotda, ishda va hatto shaxsiy hayotda muvaffaqiyatga erishish uchun sotsial va hissiy intellektni almashtirishga harakat qilmoqdalar. Bugungi kunda olimlar sotsial va hissiy intellekt inson hayotining individual resurslarini tushinishga yordam berishini izohlaydilar (Zeidner, Roberts & Matthews, 2002) [236]. Ba’zi tadqiqotchilar buni ijtimoiy kompetensiya deb ham atashadi (Kamsi 2008) [129].

Dawda va Xart (2000) [63] psixologik va ijtimoiy paradigmalarga asoslangan psixometrik intellektni taqdim etdilar. Weber va Westmeyer (2001) [**Ошибка! Источник ссылки не найден.**] fikriga ko‘ra, sotsial intellektni akademik intellekt yoki psixologik baholash deb atashgan. Keyinchalik, bu konstruktsiya yangi qobiliyat konstruktsiyalari sifatida hissiy (Salovey va Mayer, 1990) [**Ошибка! Источник ссылки не найден.**], amaliy (Vagner va Sternberg, 1985) [**Ошибка! Источник ссылки не найден.**] yoki muvaffaqiyatni ta’minlovchi intellekt (Sternberg, 1997) [**Ошибка! Источник ссылки не найден.**] deb nomlandi.

Hissiy intellektning tuzilishi birinchi marta yuz yil oldin ma’lum bo‘lgan. Shuningdek, Torndayk (1930) [**Ошибка! Источник ссылки не найден.**] tomonidan sotsial intellekt bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqot ishlari hissiy intellekt bo‘yicha eng asosiy tadqiqot ishi ekanligi e’tirof etildi (Bar-On, 2006; Gardner, 1983) [13]. Gardner hissiy intellekt va sotsial intellekt kontseptsiyalarini o‘z ichiga olgan shaxsda turli xil intellekt turlarining namoyon bo‘lishi mumkin, degan nazariyani

ilgari surgan. Sotsial intellekt – o‘zgalarning his-tuyg‘ulari, hayajonlari, ehtiroslari va ularni idrok etish, qadrlash, boshqarish hamda ularga javob berish qobiliyati. Hissiy intellekt - bu o‘z his-tuyg‘ularini, hayajonlarini, ehtiroslarini qadrlash, anglash, boshqarish va ularga javob berish qobiliyatidir. Gardnerning turli xil intellektlari (Intelligent Quotient) IQ (Petrides, 2011) [14] kabi bu turdagi intellekt ham ahamiyatlidir. Ushbu ilmiy ishlar tadqiqotchilar uchun yangi atama bo‘lgan sotsial intellektni yaratish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Demak, ijtimoiy intellekt bu shaxslararo ijtimoiy ta’sirlarni samarali tushunish va boshqarish imkonini beradigan kognitiv, hissiy va xulq-atvor qobiliyatlarini o‘rganadigan keng qamrovli psixologik tadqiqotlar yo‘nalishi hisoblanadi. U empatiya, istiqbolga ega bo‘lish, hissiy aql, ijtimoiy idrok va ijtimoiy bilish kabi turli jihatlarni o‘z ichiga oladi. Tadqiqotchilar odamlarning ijtimoiy signallarni qanday izohlashi, boshqalarning taassurotlarini qanday shakllantirishi va ijtimoiy xatti-harakatlarning qanday adaptatsiyalashuvini tekshiradilar.

Shunday qilib, ijtimoiy intellekt shaxslararo munosabatlar, muloqot, yetakchilik va qarorlar qabul qilishda hal qiluvchi rol o‘ynashi aniqlandi. Tadqiqot sotsial intellektning asosiy mexanizmlarini, uning rivojlanishini va ijtimoiy ko‘nikmalarni oshirish hamda turli kontekstlarda ijobiy ijtimoiy o‘zaro ta’sirlarni rivojlantirish uchun amaliy oqibatlarini ochishga qaratilgan.

### 1.2.Bo‘lajak ingliz tili fani o‘qituvchilarining jahon psixologlari tomonidan tadqiq etilishi

O‘zbekistonda o‘qituvchilar ustida qator tadqiqotlar olib borilgan bo‘lib, unda olimlarimizdan Sh.R. Baratov, M.G. Davletshin, A. M. Jabborov, S.N. Jo‘rayeva, E. G‘. G‘oziyev, B.M. Karimova, Z. T. Nishonova, A.I. Rasulov, F.A.Akramova, B.R. Qodirov, D.A. Sobirova, N.S. Safayevlar ilmiy ishlaridagi shaxsning muomala madaniyati, o‘qituvchi-o‘quvchi hamkorligining muhim psixologik omili bo‘lgan mustaqil fikrlash, muomalalning o‘quv faoliyatini boshqarishdagi roli, o‘quvchilar bilan munosabat o‘rnatishdagi hamkorlik va shaxslararo munosabatlarning o‘zaro uyg‘unligini ta’minlashga yo‘naltirilgan sotsial intellekt faktorlari tadqiq etilgan [33].

Bugungi kunda o‘qituvchining shaxsi, uning o‘z o‘quvchilari bilan hamkorlikdagi faoliyatlari, dars va o‘quv sohasidagi boshqaruv roliga bag‘ishlanlangan ko‘pgina tadqiqot ishlari borki, ular bergan ma’lumotlarga ko‘ra xorijiy psixologlarning tadqiqotlarini nazarimiz doirasida ko‘rib chiqishimiz kerak [33], [32,128].

Sotsial intellektning tarkib topishi hamda shakllanish jarayonini o‘rganishga yo‘nalgan tadqiqotlarni xorij olimlaridan G. Ayzenk, M. Vertgeymer, G. Ollport, L. Levi-Bryul, Dj. Kempion, L. Terstoun, Dj. Meyer, V. Keller, K. Dunker, P. Selov hamda Dj Brunner, U. Charlzvort, J. Piajelarning ilmiy izlanishlarida ko‘rish mumkin [43], [74],[64], [78], [107] .

Xususan, B. Ananyev, V. Shadrikov, Ye. Stepanova, L. Venger, B. Velichkovskiy, B. Aseyev, Ye. Il’in, K. Abulxanova-Slavskaya, Ye. Xlistova, D. Lyusin [33] kabi Rossiya Federatsiyasi psixolog olimlari ham ilmiy izlanishlar amalga oshirishgan bo‘lib, intellekt – inson aqliy faoliyatining muayyan shakli sifatida o‘rganilib, o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berilgan.

Bu borada keyingi yillarda olimlar har bir kasb doirasida ijtimoiy intellektnig shakllanishi va rivojlanishi, shaxslarning ijtimoiylashuvini turli sohalarga bo‘lib o‘rgana boshlashdi. Shuningdek, o‘qituvchilar kesimida olib borilgan tadqiqot ishlari ham ularning kasbiy yo‘nalganliklari doirasida ijtimoiylashuvi turlicha ekanligini ko‘rsatadi. Bu boradagi izlanishlardan biri rossiyalik olim R.D. Kaverina [60] tomonidan olib borilgan.

Ijtimoiy intellektning muayyan tasnifi mavjud emas, xususan, bu tushuncha ijtimoiy tajriba, qobiliyat kabi xususiyatlarni o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari, umumiy [138] yoki ijtimoiy kompetentlik [138] kabi boshqa tushunchalarni ham qamrab oladi.

Shuningdek, sotsial intellekt konstruktiv omillar bilan ham bog‘liq – o‘ziga ishonch, qat’iyatlilik his-tuyg‘ularni nazorat qilish yetakchilik [78] va ishdan qoniqish [89]. Ta’lim sharoiti bilan sotsial intellektning ta’siriga oid tadqiqot ishlari yetarli bo‘lmasa-da, ammo muhim takliflarni taqdim etadi [84]. O‘quvchilarning ijtimoy intellekti bilan ta’lim jarayonidagi muvaffaqiyatlari o‘rtasida ijobiy

korrelyatsiya qayd etildi. Soares, Francischetto, Peçanha, Miranda va Dutra [**Ошибка! Источник ссылки не найден.**] o‘z tadqiqotlarida umumiy iste’dodlar va ta’lim yutuqlari o‘rtasidagi bog’liqlik e’tiborga loyiq ekanligini aniqladilar. Song, Huang, Peng, Law, Wong va Chen [**Ошибка! Источник ссылки не найден.**] sotsial intellekt va ta'lim yutuqlari o‘rtasida muhim bog‘liqlik mavjudligini aniqladi. Ijtimoiy intellekt o‘quv sharoitida talabalarning ijtimoiy aloqalarining mukammalligi bilan e’tiborga loyiq munosabatlarni taqdim etdi. Costa, Ripoll, Sánchez va Carvalho [32] talaba qizlar uchun muammoni hal qilishning namoyon bo‘lishidagi farqlarni qayd etdi.

Sotsial intellekt haqida so‘z borar ekan, yana bir haqli savol tug‘iladi; sotsial intellekt nima? Uni qanday qo‘llash kerak? U qaysi kontekstda ishlatilishi mumkin? Bular tadqiqotchilarni sotsial intellekt konstruksiyasini aniqlash va tushuntirishga majbur qilgan savollar edi. Tadqiqotchilar orasida Mayer, Salovey va Karuso [72] sotsial intellektni to‘rtta bo‘limga taqsimladilar:

- fikrni kuchaytirish uchun his-tuyg‘ular;
- his-tuyg‘ularni mashq qilish;
- his-tuyg‘ularni tushunish;
-his-tuyg‘ularni tartibga solish.

Boshqa olimlar tomonidan ochiq va cheklangan xatti-harakatlarga urg‘u beriladi va tajribaga ega bo‘lish ham insonning sotsial intellektini belgilaydi, deb ko’rsatiladi [73]. Insonning tajribadan qochmasligi, xayolparastlik, mulohazalilik, plastiklik, izlanuvchanlik va individuallik fazilatlarini namoyon qiladi, tajribalardan qochadigan odam esa, kamtarlik, an’anaviylik va eskirgan urf-odatlarga sodiqlikni ko‘rsatadi [74]. Xuddi shu tarzda, Mayer, Salovey va Caruso [73] ijtimoiy intellektni bilish va aniqlashda sezilarli kamchiliklar mavjud ekanini ta’kidladilar, chunki u hali ham noaniq bo‘lib, sotsial intellektni to‘g‘ri va yetarli ma’lumot bilan tavsiflay olmaydi. Muvaffaqiyatga bo‘lgan ehtiyoj, aqlning kuchi, iroda kuchi, qoniqish va motivatsiyaga ega bo‘lish kabi psixosomatik fazilatlarni sotsial intellekt deya ta’kidlashdan ko‘ra, uni aniq belgilash, baholash, talqin qilish va tavsiflash kerak [62]. Yuqoridagi izoh sotsial intellektning keng va xilma-xil ta’sirini aniqlaydi va

ta’kidlaydi. Shunga qaramay, ijtimoiy intellektni yanada atroflicha o’rganish, aniqlashtirish va qayta tasniflash kerak, chunki u hali ham aniq, muayyan tavsif, tushuntirish va tasniflashga ehtiyoj sezadi, hamda olimlar tomonidan keng ma’noda qabul qilinadi.

Sotsial intellektning farqi uning o‘rganilishi bilan bog‘liqligi, yutuqlari yoki kelgusi vaziyatlarni prognoz qilish qobiliyati bilan bog‘liq bo‘lishi mumkindir, ehtimol. Bu fikr boshqaruv ko‘nikmalari va ish taqdimotlari uchun sotsial intellektni o‘rgangan olimlar tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi [133]. Sotsial intellektning qo‘shimcha arxetipi mavjud bo‘lib, u aniqlik, ishonchlilik, ifodalilik, guruhga moslashish va muvaffaqiyatga erishish yo‘lida birlashish, verbal va noverbal muloqot, insonlarni anglash, ularning kelgusi harakatlarini prognozlash malakalarini o‘z ichiga oladi [68]. Edmond-Kiger, Taker va Yost [42] ijtimoiy intellektdagi individual farqlarni qayd etdilar.

Garchi sotsial intellekt Salovey va Mayer [124] tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lsa-da, lekin u Golemanning kitobi bilan 1995-yilda tanilgan. Sotsial va hissiy intellektning amaliyligini hozirda ahamiyatsiz deb bo‘lmaydi. Bugungi kunda tadqiqotchilar akademik hayotda, ishda va hatto shaxsiy hayotda muvaffaqiyatga erishish uchun sotsial va hissiy intellektni almashtirishga harakat qilmoqdalar. Bugungi kunda olimlar intellektual fikrlash bilan hissiy yoki ijtimoiy tajribani bir-biriga zid emas, balki inson resurslarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash uchun sotsial intellekt va hissiy intellektni juda yuqori baholaydilar [**Ошибка! Источник ссылки не найден.**]. Ba’zi tadqiqotchilar buni ijtimoiy kompetensiya deb atashadi [42].

D.G. Myers [87] ijtimoiy intellektni ijtimoiy fikrlash, o‘zini-o‘zi va boshqalarni ijtimoiy ko‘rsatmalar asosida baholash qobiliyati sifatida belgilaydi. J. Piaget [107] intellektning mohiyatini saxsning jismoniy va ijtimoiy voqelikka munosabati va barqaror moslashishida ko‘rib chiqadi. Ijtimoiy intellektning murakkab tuzilma modeli J.P. Gilford tomonidan taqdim etilgan [57]. Uning kontseptsiyasiga ko‘ra, ijtimoiy intellekt ijtimoiy obyektlarni aks ettirish bilan bog‘liq bo‘lgan ta’lim jarayonlarini birlashtiradi va tartibga soladi. M.E. Ford va M.S. Tisak

[11] ijtimoiy intellektni muammoli vaziyatlarni muvaffaqiyatli hal qilish uchun, ijtimoiy axborotni qayta ishlash uchun aqliy qobiliyatlar guruhi deb ta’riflagan. Ular ijtimoiy intellekt umumiy intellektga o‘xshamasligini va u ijtimoiy muhitda rivojlanishini isbotladilar. Intellekt nazariyasi R.J. Sternberg nazariyasiga ko‘ra [**Ошибка! Источник ссылки не найден.**] uchta jihatni o‘z ichiga oladi:

1. Individning ichki dunyosi, axborotni qayta ishlash bilan bog‘liq fikrlash mexanizmlari o‘zaro bog‘liqligini tushuntiruvchi tarkibiy qism nazariyasi;

2. Tajribaning kichik nazariyasi, belgilovchi oldingi tajribadan foydalangan holda yangi vaziyatni o‘zlashtirish samaradorligi (empirik intellekt);

3. Intellektning ijtimoiy vaziyatda namoyon bo‘lishini tushuntiruvchi kontekstning kichik nazariyasi (vaziyatli intellekt). Asta-sekin, ijtimoiy intellektni o‘rganishda ijtimoiy intellektni baholashning xulq-atvorli noverbal usullariga asoslangan tadqiqotlar ko‘proq o‘rin egallaydi.

Shunday qilib, tadqiqotning maqsadi bo‘lajak ingliz tili fani o‘qituvchilarining kasbiy muloqotida muhim bo‘lgan omillarni hisobga olgan holda o‘rta maktabning bo‘lajak ingliz tili fani o‘quvchilarining ijtimoiy intellekt xususiyatlarini o‘rganishdir.

Sotsial intellekt til, nutq, kompensatsion va ta’lim kompetentsiyalarini ajratib turadi. I.B. Kudinovaning [59] fikricha, chet tilining kommunikativ kompetensiyasi til, nutq va ijtimoiy intellekt kompetentsiyadan iborat.

Ilmiy manbalarni tahlil qilish natijasida bo‘lajak ingliz tili fani o‘qituvchilarining ijtimoiylashuv jarayonini baholashda bir nechta yo‘nalishlarni ajratib ko‘rsatish imkoni ma’lum bo’ld:

- jarayonni yanada muvaffaqiyatli qiladigan ijodiy qobiliyatlar to‘plami;
- muloqotga ijodiy yondashuv;
- ijtimoiy intellektga egalilik.

Xususan, biz bu yerda ijtimoiylashuvdagi asosiy kompetensiyalar sifatida quyidagilarni e’tirof etishimiz mumkin:

- sotsial ta’lim;
- muloqot qilish qobiliyati;
- kommunikativ ijodkorlik.

Uslubiy atamalarning yangi lug‘atiga ko‘ra, bo‘lajak ingliz tili fani o‘qituvchilaridagi ijtimoiy intellekt – bu ona tilida so‘zlashuvchilarning xulq-atvori qoidalari va ijtimoiy normalari, o‘rganilayotgan til mamlakatining an’analari, tarixi, madaniyati va ijtimoiy tizimlarinini bilishdir.

Turdner, Chandler va Hefflerlarning [133] fikricha, ijtimoiy intellekt quyidagi komponentlar majmuini o‘z ichiga oladi:

- lingvomadaniy komponent (milliy-madaniy semantikaga ega bo‘lgan leksik birliklar va ularni madaniyatlararo muloqotlarda qo‘llay olish qobiliyati),

- sotsiolingvistik komponent (ijtimoiy madaniyatning til xususiyatlari, qatlamlar, turli avlod vakillari, jinslar, ijtimoiy guruhlar, dialektlar),

- ijtimoiy-psixologik komponent (madaniyatda qabul qilingan aloqa texnologiyasidan foydalangan holda milliy o‘ziga xos xatti-harakatlar),

- madaniy komponent (ijtimoiy-madaniy, tarixiy-madaniy, etnik-madaniy kelib chiqish) [117].

Wong, C. M. T., Day, J. D., Maksvel, S. E., & Meara [144] ijtimoiy intellektni quyidagilardan iborat deb hisoblaydi:

a) sotsial-madaniy bilimlar (o‘rganilayotgan tilning mamlakati, ma’naviy qadriyatlari, madaniy an’analari, shu jumladan, turli etnik guruhlar vakillari, milliy mentalitet xulq-atvorining o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar);

b) tajriba (muloqotning maqbul uslubini tanlash, chet el madaniyati hodisalarini to‘g‘ri talqin qilish);

c) madaniy faktlarga shaxsiy munosabat (shu jumladan, muloqotda ijtimoiy-madaniy ziddiyatlarni yengish va hal qilish qobiliyati);

d) tildan foydalanish usullarini bilish (madaniyatlararo muloqotning turli sohalarida nutqda milliy belgili til birliklaridan to‘g‘ri foydalanish, mahalliy va xorijiy ijtimoiy-madaniy sohalar o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarga sezgirlik) [137].

Bartone tilni o‘zlashtirish milliy madaniyatni o‘zlashtirish bilan uzviy bog‘liq deb hisoblaydi, bu nafaqat madaniy bilimlarni (madaniy faktlarni) o‘zlashtirishni, balki ona tilida so‘zlashuvchilarning mentalitetini tushunish qobiliyati va istagini shakllantirishni ham o‘z ichiga oladi [**Ошибка! Источник ссылки не найден.**].

K. Jones va J.D.Day [58] yondashuvida ijtimoiy intellekt verbal va noverbal xulq-atvor koʻnikma va malakalari hamda til bilimlari, jumladan, biekvivalent va fon soʻz boyligi, shuningdek, milliy madaniyat haqidagi bilimlar bilan ifodalanadi. Ikki ekvivalent lugʻat oʻqituvchining alohida e'tiborini talab qiladi, chunki bu soʻzlar qat'iyan tarjima qilinmaydi va ularning ma'nosi sharhlash orqali ochiladi. Fraser lugʻati milliy madaniy ashyolar, tarixiy faktlar, xalq qahramonlarining nomlari va boshqalarga mos keladi [45].

XX asr boshidan ingliz tilini oʻqitish nazariyasi va amaliyotida oʻzgarishlar, xususan, tilni oʻqitish va oʻrganishda yangi yondashuvlarni izlash faollashdi. Shuningdek, bu boʻlajak ingliz tili oʻqituvchilarining ijtimoiy intellektini rivojlanitirishning dolzarbligini namoyon etdi. Bu til materialini tanlashda ham, oʻqitishning maqsad va vazifalarini qayta koʻrib chiqishda ham namoyon boʻldi, ular orasida madaniyatlar muloqoti sharoitida ingliz tilida muloqot qilishni oʻrganish yetakchi rol oʻynay boshladi. Tilshunoslik rivojlanishining zamonaviy bosqichi tilga dunyoning maxsus bilimi sifatida e'tiborning kuchayishi hamda ijtimoiy intellektning rivojlanishi bilan tavsiflanadi. Ikki va undan ortiq tilda soʻzlasha oladigan oʻqituvchilarnig sotsial intellekt darajasi qanday boʻlishi mutaxassislarni ham qiziqtira boshladi.

Boʻlajak ingliz tili fani oʻqituvchilari oliy ta'limni tugatganlarida ingliz tilida soʻzlashuvchilarni mukammal tushunishlari ajablanarli emas va ularning nutqida ham grammatik, ham xatti-harakatlarida ijtimoiy moslashuv mavjud boʻlishi tabiiy holdir. Ingliz tilini oʻrganish bilan bir vaqtda, boʻlajak ingliz tili fani oʻqituvchilarida til madaniyatini oʻrganish ijtimoiy intellektuallikni yanada yuqori bosqichga koʻtaradi [51].

Millatlararo munosabatlar tez-tez keskinlashgan, vatanparvarlik va baynalmilal tarbiya muhim ahamiyatga ega boʻlgan zamonaviy dunyoda ijtimoiy intellektual jihatdan rivojlangan pedagoglarga bugun butun dunyo ehtiyoj sezmoqda. Vaholanki, bugungi kunda ingliz tili oʻqituvchilarining sezilarli foizi ikkinchi tili ingliz tili boʻlgan davlatlarda ingliz tili oʻqituvchisi sifatida faoliyat olib borishini nazarda tutadigan boʻlsak, ulardagi sotsial intellekt bugungi kunda nafaqat lingvistik jihatdan,

balki geo-lokatsiya bo‘yicha ham rivojlana olish bosqichiga ko‘tarilmoqda. Bunda yetakchi qobiliyat sifatida biz ijtimoiy intellekt bugungi ko‘p madaniyatli dunyoda yashash va o‘zaro munosabatda bo‘lish istagi va qobiliyatini bo‘lajak ingliz tili fani o‘qituvchilarining maqsadida faollashishini o‘z ichiga oladi. Sotsial intellekt ingliz tili fani o‘qituvchilari bolalarga tilni o‘rgatish jarayonida mehribonlik, bag‘rikenglik, boshqa odamlarni hurmat qilish, barcha xalqlar bilan tinch va totuv yashashga o‘rgatishda ham katta imkoniyatlar yaratadi.

XXI asr boshlarida ingliz tilini o‘qitishning maqsadi endi lingvistik bilim, ko‘nikma va hatto mamlakatga xos ma’lumotlarni ensiklopedik rivojlantirish bo‘lib qolmasdan, tili o‘rganilayotgan mamlakat madaniyati, urf-odatlari, an’analarini bilish orqali sotsial intellektual bilimlarni orttirishdan iborat bo‘lishi zarur. Pedagogik ta’lim o‘qituvchilarni madaniyatlararo muloqotda ishtirok etish ko‘nikmalarini rivojlantirishining markaziy o‘rinini egallaydi. Bu esa, xalqlar, tillar, madaniyatlarning aralashib ketishi misli ko‘rilmagan miqyosga yetgan va har doimgidek boshqa madaniyatlarga nisbatan bag‘rikenglikni tarbiyalash muammosi mavjud bo‘lgan hozirgi paytda sotsial intellekti yuqori bo‘lgan pedadodlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Shuningdek, sotsial intellekti mukammal bo‘lgan pedagog yetakchiligi nazarda tutiladi. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida esa, boshqa fan o‘qituvchilaridan farqli o‘laroq, til kompetensiyasi orqali matnlarni, adabiyotlarni, ommaviy axborot vositalarini qiyinchiliksiz kuzatish imkoniyati mavjud bo‘ladi. Ular xulosalar yasashda ham o‘sha xalq vakilidek o‘ylash, fikr yuritish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Bo‘lajak ingliz tili fani o‘qituvchilari uzluksiz ta’lim jarayonida ingliz tilini o‘rgatishi madaniyatlararo muloqotda qatnashishga qodir va tayyor shaxsni shakllantirishlarida sotsial intellektlarini doimiy dinamik harakatiga ega bo‘lishlari bilan bog‘liq. Ammo bu vazifani ijtimoiylashuvni rivojlantirmasdan amalga oshirib bo‘lmaydi.

Pedagoglar malakaviy kasbiy tayyorgarlikdan tashqari, kasbiy faoliyatda o‘zlarining xatti-harakatlarini tushunishlari, baholashlari va hamkasblari bilan to‘g‘ri munosabatda bo‘lishlari, shuningdek, ularning xatti-harakatlarini hisobga olishlari

kerak. Bular ijtimoiy kompetentsiyaning tarkibiy birligi bo‘lgan ijtimoiy intellekt uchun ahamiyatlidir. Ijtimoiy intellektni nizolarni hal qilish, muloqotda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan to‘siqlarni oldindan ko‘ra bilish, munosabatdagi sheriklarini adekvat baholash, o‘zini, o‘z xatti-harakatlarini va boshqa odamlarning xatti-harakatlarini tushunish, o‘zgaruvchan ijtimoiy sharoitlarga moslashish, vaziyatni to‘g‘ri baholash [129], inqiroz va stressni boshqarish shaxslararo o‘zaro ta’sirga bog‘liq [53] qobiliyat sifatida ko‘rish mumkin.

Shuni ta’kidlash kerakki, zamonaviy pedagogik-psixologik manbalarda ijtimoiy intellektning turli xil ta’riflari mavjud, xususan:

- shaxslararo munosabatlarning borishini bashorat qilish samaradorligini, boshqa odamlarni tushunish qobiliyatini va ular o‘rtasidagi munosabatlarni, o‘zini anglash qobiliyatini belgilaydigan murakkab dinamik shaxs xususiyati [56];

- ijtimoiy voqelikni tan olishning integral intellektual qobiliyati [93];

- ijtimoiy munosabatlar va ijtimoiy moslashuv samaradorligini belgilaydigan shaxslilikning ko‘p komponentli tavsifi [43].

Biz, odatda, intellektual qobiliyatlar tizimini ijtimoiy intellekt orqali tarkib toptiramiz, ehtimol. Bu esa, bo‘lajak ingliz tili fani o‘qituvchilariga o‘zlari va boshqa odamlar, ularning xatti-harakatlarini bashorat qilish, vaziyatga muvofiq adekvat javob berishning mumkin bo‘lgan usullarini shakllantirishni tushunish imkonini beradi.

Ijtimoiy intellektning rivojlanish darajasi shaxsning o‘ziga ishonch, boshqa odamlarga ta’sir qilish qobiliyati, o‘zini o‘zi hurmat qilish, ijodkorlik, axloqiy munosabatlar, o‘zini o‘zi boshqarish qobiliyati kabi fazilatlariga ta’sir qiladi.

Ijtimoiy intellekt darajasi yuqori bo‘lgan odamlar atrofdagilarning xulq-atvorini to‘liq bashorat qiladilar, ular bilan ijobiy munosabatda bo‘lishadi, ular moslashuvchan bo‘ladilar [149]. Ammo shaxsda ijtimoiy intellektning eng past daraja bo‘lishi uyatchanlik, ichki qarama-qarshilik, yolg‘izlik, boshqa odamlardan ajralib turish, hatto tajovuzkorlik kabi fazilatlarning paydo bo‘lishiga olib keladi [144]. Ijtimoiy intellekt darajasi past bo‘lgan odam odamlarni tushunish va bashorat qilishda qiyinchiliklarga duch keladi, bu ijtimoiy moslashuvning past darajasi bilan tavsiflanishi mumkin [**Ошибка! Источник ссылки не найден.**].

Binobarin, ijtimoiy intellekt turli toifadagi odamlar bilan o‘zaro munosabatlarda bo’ladigan professionallikning yuqori darajasi bilan ajralib turadigan kommunikativ kasblar vakillari uchun ularning kasbiy tayyorgarligining zaruriy tarkibiy qismidir [55].

Bizning fikrimizcha, bo‘lajak ingliz tili fani o‘qituvchilarning ijtimoiy intellekt darajasining yuqori bo‘lishi kelajakdagi ishlarida, ijtimoiy-pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishning shartidir. Pedagogika universiteti xorijiy til yo‘nalishi talabalari psixolingvistik kompetentlikka muvaffaqiyatli moslasha olishlari va samarali bilingval muloqot qila olishlari kerak. Bunda yuqori darajadagi ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishlari lozim bo‘ladi [56].

Chet el olimlari P. Salovey va J. Mayerlar [**Ошибка! Источник ссылки не найден.**] umumiy intellekt va emotsional intellektni shaxsning o‘zining va o‘zgalarning his-tuyg‘ularini tushunish, ularni tahlil qilish, olingan ma’lumotlar asosida o‘z fikr va harakatlarini nazorat qila olish qobiliyati, deb ta’riflaydilar. Shuningdek, ijtimoiy intellekt shaxsning ijobiy va salbiy his-tuyg‘ularni farqlash, o‘z his-tuyg‘ularini nazorat qilish, vaziyatga mos ravishda namoyon qila olish qobiliyati sifatida ham tavsiflanadi.

Demak, bugun biz bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilari ustida keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borib, ularning darsdagi samaradorligi va muvaffaqiyatiga ta’sir etuvchi omillarni tushunishni maqsad qildik. Ushbu tadqiqot pedagogik bilim, tilni bilish, o‘qitish strategiyasi, sinfni boshqarish, o‘qituvchi va o‘quvchi munosabatlari kabi turli jihatlarga qaratilgan. Bu izlanishlarda sotsial intellekt talabalarning ta’lim natijalariga, motivatsiyasiga va faolligiga qanday ta’sir qilishi mumkinligini o‘rganiladi. Natijalar ingliz tilidagi ta’lim sifatini ta’minlash hamda tobora globallashib borayotgan dunyoda turli xil o‘quvchilar ehtiyojlarini samarali qondira oladigan bilimli va malakali o‘qituvchilarni tayyorlash uchun ta’lim dasturlariga sotsial intellektni rivojlantiruvchi modullarini kiritish maqsadga muvofiq.

### 1.3 Psixologiyada sotsial intellekt fenomenining ilmiy tadqiq etilishi

Ijtimoiy intellekt hodisasi psixologiyada turli tadqiqot usullari va

yondashuvlari orqali o‘rganiladi [64]. Tadqiqotchilar ijtimoiy intellektning turli jihatlarini va uning ijtimoiy o‘zaro munosabatlarga ta’sirini o‘rganish uchun miqdoriy va sifat usullarining kombinatsiyasidan foydalanadilar [63,94,136,109]. Ijtimoiy intellektni o‘rganishda qo‘llaniladigan ba’zi umumiy yondashuvlar:

*Anketalar va so‘rovnomalar:* Tadqiqotchilar ko‘pincha odamlarning o‘zlarining ijtimoiy intellektini idrok etishlarini baholash uchun o‘z-o‘zidan hisobot berish anketalari va so‘rovlarini ishlab chiqadilar. Ushbu o‘lchovlar, odatda, empatiya, muvaffaqiyatga erishish, hissiy aql, ijtimoiy ko‘nikmalar va ijtimoiy idrok bilan bog‘liq narsalarni o‘z ichiga oladi. Ishtirokchilar o‘zlarining qobiliyatlari va xatti-harakatlarini baholaydilar, tahlil qilish uchun ma’lumotlarni taqdim etadilar.

*Eksperimental tadqiqotlar:* Eksperimental tadqiqotchilarga o‘zgaruvchilarni manipulyatsiya qilish va sabab-oqibat munosabatlarini tekshirish imkonini beradi. Misol uchun, tadqiqotchilar turli xil aralashuvlar yoki o‘quv dasturlari ijtimoiy intellektga qanday ta’sir qilishini o‘rganish uchun tajribalar ishlab chiqishlari mumkin. Ishtirokchilar tasodifiy aralashuv va nazorat guruhlariga tayinlanishi mumkin va ularning ijtimoiy ko‘nikmalari va xatti-harakatlari aralashuvdan oldin va keyin o‘lchanadi.

*Kuzatuv tadqiqotlari*: Kuzatish usullari tabiiy muhitda yoki boshqariladigan laboratoriya muhitida shaxslarning ijtimoiy xatti-harakatlari va o‘zaro ta’sirini muntazam ravishda kuzatishni o‘z ichiga oladi. Tadqiqotchilar og‘zaki bo‘lmagan belgilar, aloqa shakllari, empatiya ko‘rsatish va istiqbolni qabul qilish qobiliyatlari kabi xatti-harakatlarni tahlil qilish uchun kodlash tizimlaridan foydalanishlari mumkin. Ushbu yondashuv real dunyodagi ijtimoiy o‘zaro munosabatlar haqida qimmatli tushunchalarni beradi.

*Neyropsixologik yondashuvlar*: Ijtimoiy intellektni funktsional magnit-rezonans tomografiya va elektroensefalografiya kabi usullar yordamida o‘rganiladi. Ushbu usullar tadqiqotchilarga ijtimoiy vazifalarni bajarish paytida nerv sistemasi faoliyatini tekshirishga va ijtimoiy bilish, empatiya va istiqbolni qabul qilish bo’yicha nerv sistemasining mexanizmlarini o‘rganishga imkon beradi.

*Rivojlanish bo‘yicha tadqiqotlar*: Tadqiqotchilar turli yosh guruhlarida,

go‘daklikdan boshlab, kattalargacha bo‘lgan ijtimoiy intellektning rivojlanishini o‘rganadilar. Ijtimoiy ko‘nikmalar, ijtimoiy bilish va empatiyaning vaqt o‘tishi bilan rivojlanishini kuzatish uchun longtyud tadqiqotlar qo‘llaniladi. Ushbu yondashuv ijtimoiy intellektning rivojlanishiga ta’sir qiluvchi muhim davrlar va omillarni aniqlashga yordam beradi.

*Madaniyat va madaniyatlararo tadqiqotlar*: Ijtimoiy intellektga madaniy me’yorlar, qadriyatlar va maqsadlar ta’sir qiladi. Tadqiqotchilar ijtimoiy intellekt turli madaniyatlarda qanday namoyon bo‘lishini va qadrlanishini o‘rganish uchun madaniyatlararo tadqiqotlar olib boradilar. Ular ijtimoiy ko‘nikmalar, hissiy ifoda va ijtimoiy o‘zaro ta’sir shakllaridagi madaniy o‘zgarishlarni o‘rganadilar.

*Meta-tahlillar va tizimli sharhlar*: Meta-tahlillar va tizimli sharhlar ijtimoiy intellekt bo‘yicha tadqiqotlarning to‘liq ko‘rinishini ta’minlash uchun bir nechta tadqiqotlar natijalarini birlashtiradi. Ushbu yondashuvlar sohadagi intellektual tendentsiyalarni va konsensusni aniqlashga hamda ijtimoiy intellektning umumiy ta’siri va ahamiyatini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

O‘quv muhiti va jarayoni o‘quvchilar bilim olishining eng muhim elementlaridan biridir. O‘quvchilar ta’lim muhitiga jismoniy va psixologik jihatlardan tayyor bo‘lishlari kerak. O‘quv muhitining jismoniy tomoni o‘quv materiallari, maktab binosi, kutubxona, kompyuter laboratoriyasi, sinf mebellari va boshqa muhim materiallardan iborat bo‘lib, ular o‘qituvchiga o‘quv rejasini to‘g‘ri bajarishda va o‘quvchilarning bilim olishlarida yordam beradi. O‘quv muhitining psixologik jihati o‘quvchilar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi munosabatlarga bog‘liq. O‘qituvchilar va o‘quvchilarning o‘zaro tushunishi, o‘qituvchilarning ta’lim uslublari, talablari, maqsadlari va amaliyotlari o‘quv muhitining psixologik jihatiga ta’sir qiluvchi elementlardir [111].

Bilim olishning o‘zi tabiatan ta’sirli jarayondir. Bu jarayonda o‘qituvchining vazifasi ijtimoiy intellektni yaxshilash va foydalanishdan iboratdir. Birinchisi, o‘qituvchi ta’lim muhitida o‘zining ham, o‘quvchilarining ham ijtimoiy holatini aniqlay oladi va ularga javob bera oladi. Bu esa, o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro ta’limiy hamkorlik amaliyotlari yanada samarali bo‘lishiga imkon beradi. Keyingi

maqsad, o‘quvchilarda foydali va samarali bilim olishga hissa qo‘shadigan ijtimoiylashuv vaziyatini kuchaytirishdir [104].

Bilim olish, ayniqsa, amaliy o‘rganish o‘quvchining muhitga javoban ijtimoiy rivojlanishini ta’minlaydi [110]. Sinfdagi o‘quv muhiti faqat nazariy bilimlarga e’tibor qaratadi, lekin o‘quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun juda muhim bo‘lgan shaxslararo ko‘nikmalarni butunlay e’tiborsiz qoldiradi [**Ошибка! Источник ссылки не найден.**]. Taker, Sojka, Barone, MakKarti [**Ошибка! Источник ссылки не найден.**] va boshqaruvning nazoratdan chiqib ketish nuqtasini ijtimoiy intellektning yetishmasligi deb ta’kidlaydilar. Taker, Sojka, Barone va Makkarti [**Ошибка! Источник ссылки не найден.**] ta’kidlashicha, maktablar kasbiy yutuqlarni yaxshilash uchun har bir o‘quvchining "bilimlar qutisi"ga ijtimoiy intellekt tajribasini integratsiya qilishlari lozim. Boyatzis, Stubbs va Teylor [27] tomonidan tavsiya etilgan tajriba taraqqiyoti, odatda, sinfdagi ta’lim muhiti, jumladan, ma’ruzalar, o‘qitish metodologiyasi va sinfni boshqarish texnikasi orqali rivojlantiriladi.

Sinfdagi o‘quv muhiti va jarayoni o‘quvchilarga sotsial intellektni o‘rgatish va rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega, shuningdek, o‘qituvchilarning hissiy va ijtimoiy barqarorligini ta’minlaydi, buning uchun o‘qituvchi tomonidan puxta tayyorgarlik, yaxshi o‘quv sharoitlari, bilimlarni uzatish va to‘g‘ri baholash juda zarur [19].

Ijtimoiy intellektni tizimli va qat’iy ravishda rivojlantirish uchun quyidagi zarur ko‘nikmalarni aniqlash va tashkiliy talablarni baholash maqsadga muvofiq:

- ijtimoiy xabardorlikni oshirish va o‘quvchining o‘z zaif va kuchli tomonlarini baholashlari;

- ishonchli munosabatlarni shakllantirish uchun o‘qituvchi tomonidan g‘amxo‘rlik, sezgir va mohirona fikr-mulohazalilikni ta’minlash;

- o‘quvchilarning dars jarayonida faol ishtirok etishga bo’lgan motivatsiyalarini kuchaytirish;

- yangi bilimlarni egallash jarayonida o‘quvchilarning ruhiyatini ko‘tarish;

- o‘quvchilarning o‘quv maqsadlarini shaxsiy maqsadlari bilan bog‘lash;

- ijtimoiy faol o‘quvchilarning yordam olishni xohlaydigan boshqa tengdoshlariga darsda interfaol hamkorlik korsatish imkoniyatlarini yaratish;

- o‘quvchilarni muhit o‘zgarishlariga tayyorlash va shu asosda tegishli dasturlarni rejalashtirish;

-murabbiy va shogird o‘rtasida konstruktiv munosabatlarni rivojlantirish;

- mustaqil ijtimoiylashuvni maksimal darajada oshirish;

- aniq maqsadlarni belgilash;

- maqsadlarni amaliy bosqichlarga bo‘lish;

- amaliyot uchun imkoniyatlarni maksimal darajada oshirish;

- amaliyot bo‘yicha konsentrlangan g‘oyalarni ta’minlash;

- rolli o‘yinlar, muhokamalar va simulyatsiya usullaridan foydalanish;

- qo‘llab-quvvatlashni shakllantirish va vaqtdan unumli foydalanishni o‘rgatish;

- muvaffaqiyatli modellardan foydalanish;

- o‘z-o‘zini anglash va rivojlantirish;

- ta’limni qo‘llab-quvvatlaydigan innovatsiyalar, rivojlantiruvchi va rag‘batlantiruvchi tizim kabi institutsional hayot tarzini ta’minlash; [148].

O‘qituvchilarni qo‘llab-quvvatlashda asosiy e’tiborni o‘qituvchilarning nimani anglashi, nimaga ishonishi, bajarishi va o‘quv vaziyatiga olib kelishi mumkinligi va o‘quvchilar taklif qilingan narsalarni qanday tushunishi, nimani anglashi, o‘ylashi va qanday his-tuyg‘ularga ega ekanligiga qaratiladi [103].

O‘qituvchining vazifalaridan biri o‘quvchilarning axloqiy nuqsonlarini tuzatishi hisoblanadi. Bunda u turli texnikalar orqali o‘quvchilar xulq-atvoriga ijtimoiylashuv va hissiy barqarorlikni singdirishi kerak. U o‘quvchilarga o‘quv faoliyatida faol ishtirok etishlari uchun ularning hissiy va ijtimoiy intellektlari rivojlanishiga imkon berishi kerak. O‘qituvchining maqsadi: o‘quvchilarining kuchli hissiy va ijtimoiy intellektini shakllantirish, ijtimoiy islohot, kognitiv qobiliyatni shakllantirish; odobli fuqaroni tarbiyalash, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish; va ijtimoiy qadriyatlarini tarkib toptirishga qaratiladi.

Hissiy va ijtimoiy intellekt –o‘quvchilarga o‘quv jarayonini yaxshilashga, va

o‘quv jarayonidagi qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi. Sotsial intellektning maqsadlari o‘quvchilarning ichki va tashqi qobiliyatlarini har tomonlama rivojlantirish va ta’lim muammolarini hal qilish; o‘quvchilarga o‘quv materiallarini o‘rgatishning eng samarali usullarini o‘rganish; o‘quvchilarning guruhda o‘qishlari uchun eng yaxshi ta’lim vaziyatiga ega maqsadli ta’lim muhitini yaratish va uning har bir o‘quvchining ehtiyojlari, xususiyatlari va maqsadlariga qanchalik mos kelishini aniqlashdir (Nagra, 2014)[89].

Demak, sotsial intellekt, o‘qituvchilar uchun asosiy qobiliyatlar va ko‘nikmalar to‘plami hisoblanadi. Sotsial intellektni rivojlantirish, o‘qituvchilar uchun qo‘llanma holatida qo‘llaniladigan elementlar, ta’lim-uslubiy tushunchalar, o‘quv jarayonida qo‘llanish usullari va boshqa texnologiyalardan foydalanish, o‘quvchilar bilan yaxshi aloqalar o‘rnatish, o‘quvchining vazifalarni bajarishini tahlil qilish va talabalarning ijobiy tushunishini ta’minlash kabi amallar orqali amalga oshirilishi mumkin.

R. Selman ijtimoiy intellektni ijtimoiy bilish nazariyasi doirasida o‘rgangan. U ijtimoiy rolni qabul qilish nazariyasini ishlab chiqdi. Xususan, u shaxslararo o‘zaro munosabatlarda tajriba to‘plash jarayonida shaxs o‘ziga va boshqa odamlarga subyekt sifatida munosabatda bo‘lish, boshqalarning harakatlariga o‘zinikidek munosabatda bo‘lish, o‘z xulq-atvorini hisobga olish qobiliyatini rivojlantiradi, deb ta’kidlaydi. Boshqalar nuqtai nazaridan olimlar tomonidan ijtimoiy intellekt rivojlanishining asosiy bosqichlarini ajratish odamlarning ijtimoiy intellekt haqidagi g‘oyalarini rivojlantirishga muhim hissa bo’lishi mumkin[119].

Ijtimoiy intellektni kognitiv qobiliyat sifatida tushunish mahalliy psixologlarga ham xosdir. Shunday qilib, masalan, O. B. Chesnokova ijtimoiy intellektni aniq vaziyatlarda shakllanadigan va namoyon bo‘ladigan ijtimoiy voqelik bilan shaxsning real hayotiy munosabatlarida bilish va yo‘naltirishni ta’minlaydigan umumiy kognitiv qobiliyat sifatida belgilaydi.

V.N. Panferov ijtimoiy intellektni muloqot subyekti faoliyatining turli darajalarida inson faoliyatining umumiy funksiyalarida namoyon bo‘ladigan kognitiv funksiya sifatida ajratadi. Uning fikricha, ijtimoiy intellekt ijtimoiy aloqalarni ko‘paytirishga, og‘zaki va og‘zaki bo‘lmagan kompetentsiyani kengaytirishga,

shaxsiylashtirishni ta’minlashga, muloqotda ekspressivlikni rivojlantirishga, ijtimoiy-perseptiv qobiliyatlarni yaxshilashga va sheriklarning o‘zaro ta’siriga nisbatan sezgirlikni oshirishga yordam beradi [969]

E.O. Smirnova va E.A. Kalyagin ijtimoiy intellektni boshqa shaxsning nuqtai nazarini qabul qilish, uning xatti-harakatlarini oldindan bilish va odamlar o‘rtasida yuzaga keladigan turli muammolarni samarali hal qilish qobiliyatida namoyon bo‘ladigan kommunikativ kompetentsiyaning kognitiv tarkibiy qismi sifatida ko‘rib chiqadi [Ошибка! Закладка не определена.].

Aql-idrokning strukturaviy-dinamik nazariyasining yaratuvchisi D.V. Ushakov ijtimoiy intellektni "ijtimoiy ko‘nikma va malakaning tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan va ularni tugatmaydigan ijtimoiy hodisalarni bilish qobiliyati", deb tushunadi [138].

Belgilangan sohada mahalliy psixologlarning keyingi tadqiqotlari "ijtimoiy intellekt" tushunchasi mazmunining kengayishiga olib keldi. Bu toifa endi faqat kognitiv qobiliyat sifatida belgilanmaydi, balki refleksiv qobiliyatlarni, o‘z-o‘zini hurmat qilishni va keyinchalik hissiy komponentni ham o‘z ichiga oladi.

Shunday qilib, Yu.N. Yemelyanova ta’kidlashicha, ijtimoiy intellekt "fikrlash jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlariga, affektiv reaktsiyaga va ijtimoiy tajribaga asoslangan o‘zini-o‘zi anglashning barqaror qobiliyati", deb qaraladi.

Shuningdek, boshqa odamlar, ularning munosabatlari va shaxslararo hodisalarni bashorat qiladi." [955]. Ijtimoiy intellektning tarkibiy elementlari sifatida uning ishining asosiy qoidalariga asoslanib, fikrlash jarayonlari, sezgirlik, aks ettirish va ijtimoiy o‘zaro ta’sir tajribasini ajratib ko‘rsatish mumkin.

V.N. Drujininning so‘zlariga ko‘ra, ijtimoiy intellekt ijtimoiy-psixologik kuzatish, vizual-majoziy xotira, refleksga asoslanadi. Shuningdek, odamlarning xatti-harakatlarini kuchli tushunish, tahlil qilish qobiliyati” [41].

N.A. Kudryavtseva ijtimoiy intellektni ratsional aqliy operatsiyalar qobiliyati sifatida belgilaydi, uning obyekti shaxslararo o‘zaro ta’sir jarayonlari hisoblanadi. Shu bilan birga, u insonning o‘zini-o‘zi qadrlashini ijtimoiy intellektning muhim tarkibiy qismi deb hisoblaydi. Ijtimoiy intellekt va intellektni o‘z-o‘zini tashkil qilish

qobiliyatining muhim hal qiluvchi omili sifatida motivatsion komponent to‘g‘risidagi qoidaga alohida e’tibor qaratish lozim. Ushbu pozitsiyaga asoslanib, ijtimoiy intellektning bir qator asosiy tarkibiy qismlarini ajratib ko‘rsatish mumkin. Ular orasida: o‘z-o‘zini hurmat qilish, muloqot qobiliyatlari, motivatsion komponent, ijtimoiy fikrlash, psixologik avtonomiya va mustaqillik alohida ahamiyatga ega [61].

E.S. Mixaylova (Aleshina) ijtimoiy intellektni muloqot va ijtimoiy moslashishning muvaffaqiyatini ta’minlaydigan, odamlarning turli kundalik sharoitlarda xatti-harakatlarini bashorat qilish, niyatlar, his-tuyg‘ular va hissiy holatlarni og‘zaki bo‘lmagan usullar bilan aniqlash qobiliyatini ta’minlaydigan ajralmas intellektual qobiliyat sifatida belgilaydi. U ijtimoiy sezgirlikni, ijtimoiy idrokni, ijtimoiy xotirani va ijtimoiy fikrlashni ijtimoiy aqlga havola qiladi [79].

Ko‘rsatilgan komponentlarni shartli ravishda ikki guruhga birlashtirish mumkin: kognitiv elementlar va hissiy komponentlar. A.L. Yujaninova ijtimoiy intellektning kognitiv komponentiga e’tibor qaratadi va uni intellektning umumiy tuzilishidagi mustaqil komponent sifatida ajratib ko‘rsatadi. Bu kontseptsiya, uning fikricha, ijtimoiy-idrok qobiliyatlari, ijtimoiy tasavvur va ijtimoiy aloqa texnikasini o‘z ichiga oladi [**Ошибка! Источник ссылки не найден.**].

V.N.Kunitsinaning tadqiqotlarida ijtimoiy intellekt deganda intellektual, shaxslilik, kommunikativ va xulq-atvor xususiyatlari majmuasi, shu jumladan, o‘z-o‘zini tartibga solish jarayonlarini energiya bilan ta’minlash darajasi asosida yuzaga keladigan global qobiliyat tushuniladi. Buni shaxslararo vaziyatlarning rivojlanishini bashorat qilish, ma’lumot va xatti-harakatlarni sharhlash, ijtimoiy o‘zaro ta’sirga va qaror qabul qilishga tayyorlik xususiyatlari hosil qiladi [14, p. 470]. Shunday qilib, u ijtimoiy intellektning mazmunini sezilarli darajada kengaytiradi, uni shaxsiy xususiyatlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan ko‘p komponentli qobiliyat sifatida belgilaydi.

Tahlil qilinadigan toifani aniqlashning zamonaviy yondashuvlari orasida A.I.Savenkovning kontseptsiyasi ham mavjud bo’lib, u ijtimoiy intellektni tavsiflovchi mezonlarning uchta guruhini ko‘rib chiqadi: kognitiv (ijtimoiy bilim, xotira, sezgi va ijtimoiy prognozlash), hissiy (ijtimoiy ekspressivlik, empatiya, o‘zini-

o‘zi boshqarish qobiliyati) va xulq-atvor (ijtimoiy idrok, ijtimoiy o‘zaro ta’sir va moslashish). Olim hissiy intellektni ijtimoiy intellektni ko‘rib chiqishga qo‘shishni taklif qiladi, ularni ajratish samarasizdir [125].

Shunday qilib, vaqt o‘tishi bilan tahlil qilingan toifa ijtimoiy sohaga tegishli kognitiv qobiliyatdan tashqariga chiqadi va ijtimoiy intellektning mustaqil tarkibiy qismlari sifatida belgilanishi mumkin bo‘lgan shaxsiy, hissiy va xulq-atvor xususiyatlari bilan yaqin aloqani topadi.


Shuni ta’kidlash kerakki, rus psixologik adabiyotlarida "ijtimoiy intellekt" atamasi faol qo‘llanila boshlanganligi sababli, ushbu toifa "insondan shaxsga" kabi kasblar uchun zarur bo‘lgan muhim fazilatlar ro‘yhatida tobora ko‘proq topilmoqda. Batafsil E.A. Klimovning ta’kidlashicha, ushbu turdagi kasb egasi "ongning o‘ziga xos ruhiy yo‘nalishi"ga ega bo‘lishi kerak [61], ya’ni boshqa shaxsning aqliy faoliyati, uning aqli va xarakterining namoyon bo‘lishiga alohida sezgirlik zarurdir. Shunday qilib, R.D.Kaverinaning ko‘rib chiqilayotgan turdagi kasblarning psixologik sistematikasiga bag‘ishlangan tadqiqotida, o‘zini va boshqa odamlarni boshqarish qobiliyati kasbiy jihatdan muhim fazilatlar qatorida, shaxslararo o‘zaro munosabatlar, xushmuomalalik, empatiya, rivojlangan nutq va nutq sohasidagi faoliyat turiga e’tibor qaratiladi va ijtimoiy intellektga muhim rol beriladi. Bundan tashqari, ijtimoiy intellekt kasbiy ta’lim jarayonida maqsadli shakllanishga yordam berishi ta’kidlandi [60].

Bir qator tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, ijtimoiy intellektning past darajasi tegishli kasb egalarining boshqa odamlar bilan o‘zaro munosabatda bo‘ladigan xavotirlanishi va noto‘g‘ri moslashuvining kuchayishiga olib keladi.

Bo‘lajak pedagogning kasbi "inson-inson" tipidagi kasblarga xos barcha belgilarini to‘liq aks ettiradi: mehnat subyekti – boshqa shaxs, mehnatning asosiy vositalari og‘zaki va og‘zaki bo‘lmagan aloqa vositalaridir; pedagogning asosiy kasbiy vazifalari boshqa odamlarga bevosita ta’sir qilish bilan bog‘liq; faoliyatning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan bevosita ijtimoiy aloqalarni o‘rnatish qobiliyatiga bog‘liq. Umuman olganda, pedagogning ishi odamlarning ijtimoiy faoliyatini

optimallashtirishga va shaxsiy muammolarini hal qilishga qaratilgan ijtimoiy institutsionallashtirilgan yordam usuli sifatida tavsiflanadi.

Shunday qilib, bir qator psixologlar tanlangan tushunchalarga sinonimik ta'riflar berishadi, bundan tashqari, psixologik kuzatish va psixologik fikrlash mazmunan ijtimoiy intellektga juda yaqin. Binobarin, ijtimoiy intellekt o'qituvchining eng muhim kasbiy fazilatlaridan biri sifatida belgilanishi mumkin. Uning asosiy komponentlari va ularning o'zaro bog'liqliklari 1.3-rasmda keltirildi.




**1.3-rasm. Ijtimoiy intellekt asosiy komponentlarining o'zaro bog'liqlik modeli** (*Manba: ilmiy ma'lumotlar asosida muallif yondashuvi).*

Ijtimoiy intellektning asosiy komponentlari sifatida uning quyidagi xususiyatlarini keltirish mumkin:

Ijtimoiy intellektning asosiy komponentlari o'rtasida **ijtimoiy kognitsiya** muhim o'rin tutadi. Bu, insonning ijtimoiy xatolar, norma va qonuniyatlarga aloqador bo'lgan tadbirlar va g'oyalarga muvofiq to'g'ridan-to'g'ri reaksiya berishni o'rganish va tushunish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Ijtimoiy kognitsiya yordamida insonlar, ijtimoiy xavfsizlik, qonuniy normalar, siyosiy muammolar va boshqa ijtimoiy munosabatlariga ko'ra qarorlarni qabul qilish va ishlarini boshqarishlari mumkin.

Bo‘lajak pedagoglarga ijtimoiy kognitsiyani o‘rgatish va rivojlantirish muhimdir. Bu o‘quvchilar o‘rtasidagi ijtimoiy aloqalarni tushunish, o‘quvchilarni ijtimoiy muammolarga oid g‘oyalarni tahlil qilish, ijtimoiy qoidalarga rioya qilish qobiliyatlarini o‘rganishda va rivojlantirishda yordam beradi. Shuning uchun o‘qituvchilarning ijtimoiy kognitsiyasi – pedagog-o‘quvchi, pedagog-ta’lim muhiti, pedagog-pedagog va pedagog-jamoa ko‘rinishidagi munosabatlarni adekvat bilshida namoyon bo‘ladi.

**Ijtimoiy prognozlash** – bu, yetarli va aniq ma’lumotlar asosida ijtimoiy tendentsiyalarni aniqlash, ijtimoiy g‘oyalar ketma-ketligini o‘rganish, o‘zgarishlarni kuzatish va kelajakni taxmin qilishga yordam beradi. Ijtimoiy prognozlash – pedagogik-psixologik va boshqa sohalarda strategik rejalashtirish, maqsadga yo‘naltirish va natijalarni boshqarishda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Bo‘lajak pedagoglarda ijtimoiy prognozlash komponentini rivojlantirish lozim. Bu, o‘quvchilarni ijtimoiy g‘oyalarni o‘rganish, til o‘rganish jarayonida erishayotgan yutuqlarini, choraklik va yillik o‘sish ko‘rsatkichlarini oldindan ko‘ra bilish, va ulanining mavjud qobiliyatlarini erta aniqlash imkonini beradi. Ya’ni, pedagoglar ijtimoiy prognozlash qobiliyatlari orqali o‘z o‘quvchilarining mavjud kompetensiyalarini rivojlantiradilar, muhimi, o‘quvchilarning iste’dodlarini, qobiliyatlarini va potensiallarini yanada oshirish, o‘quvchilarning istiqbollarini boshqarish bo‘yicha yillik yo‘l xaritalarini belgilash imkoniyatlari ortadi.

Ijtimoiy intellektning yana bir asosiy komponenti **ijtimoiy amaliy faollikdir**. Bu, insonlarning ijtimoiy tizimga qiziqish, uning asosiy vazifalari va takliflarini amalga oshirish, ijtimoiy tadbirlarni rejalashtirish, boshqarish va ijtimoiy ishlarni amalga oshirishda muvaffaqiyatli bo‘lishga qaratilgan maqsadlarni amalga oshirish imkonini anglatadi. Bo‘lajak pedagoglarga o‘quvchilarning ijtimoiy amaliy faolliklarini oshirishga fokuslanish tavsiya etiladi. Bu, o‘quvchilarni ijtimoiy tizimga qiziqishini oshirish, jamoatchilikda qatnashishni o‘rgatish, fan to‘garaklariga ishtiroklarini ta’minlash, ijtimoiy tadbirlarda ishtirok etishni rag‘batlantirish va ijtimoiy masalalarni hal qilish uchun ularni boshqarishga yordam beradi.

Ijtimoiy intellektning keyingi komponenti **ijtimoiy kreativlikni** o‘z ichiga

oladi. Bu, insonning ijtimoiy muammolar va mavzularga yangi va innovatsion yechimlar topish va ularga qaratilgan aniq, nostandard yechimlarni taklif qilish qobiliyatini anglatadi. Ijtimoiy kreativlik, ijtimoiy so‘zlash, ijtimoiy innovatsiyalar, dizayn va ijtimoiy ta’limga kirishda katta ahamiyatga ega bo‘ladi. O‘qituvchi dars jarayonida bo‘ladigan kutilmagan vaziyatlarda yechim topa olishi va adaptatsiyani yuzaga keltirish kompetensiyasi bevosita ijtimoiy kreativlikka bog‘liq. Pedagoglar uchun, o‘quvchilarning ijtimoiy kreativliklarini oshirish muhimdir. Bu, o‘quvchilarga ijtimoiy muammolarga yangi yechimlar topish va ularga ijtimoiy innovatsiyalarga qaratilgan yechimlarni taklif qilishni o‘rgatishni o‘z ichiga oladi. Pedagoglar ijtimoiy muammolarga qarshi ijtimoiy kreativlikni oshirish va o‘quvchilarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va yechim topish qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirishlari tavsiya etiladi.

O‘qituvchilarning ijtimoiy kreativligi ularning ijtimoiy muhitda, ta’lim jarayonida va o‘quvchilar bilan hamkorlik qilishda инноватsион yaratuvchanliklarini ifodalaydi. O‘qituvchilar ta’limning ijtimoiy muhitida yangi, o‘ziga xos va inovativ yechimlarni topish, yangi g’oyalarni boshqalar bilan baham ko‘rish va ularni amalga oshirishga qodir bo‘lishadi. Bunda yangi metodlar, texnologiyalar, o‘quv dasturlari va o‘quv jarayonlarini qo‘llash orqali ta’lim jarayonlarini yanada yaratuvchanlashtirishga intiladilar. Ular o‘quvchilarni muhim savollar berishga va ijtimoiy masalalarni hal qilishga o‘rgatishadi. Shuningdek, o‘qituvchilar o‘zlarining o‘quvchilari, maktab jamoalari bilan bog‘liq muammolarni hal qilishda kreativ qat’iylik ko‘rsatadilar. Ular o‘quvchilarni yaratuvchanlik, ijodiy fikrlash va ijtimoiy muhitda ishtirok etishga hamkorlik qilishga o‘rgatishadi.

Bo‘lajak pedagoglarda yuqoridagi ijtimoiy intellektning to‘rtta komponentini rivojlantirish ularning ijtimoiy muhitda muvaffaqiyatli bo‘lishiga va ta’lim samaradorligini oshirishga yordam berishi mumkin.

## I bob bo‘yicha xulosalar

1. Bugungi ta'lim sohasida o‘zgarishlar ro‘y berayotgan zamonaviy dunyoda ta'limni ijtimoiy-madaniy modernizatsiya qilish jarayonlari mavjud. Bunday sharoitda

har yili uzluksiz ta'lim, o‘z-o‘zini takomillashtirish va o‘z-o‘zini tarbiyalashning ahamiyati ta'lim sifatini belgilaydigan tobora salmoqli dalilga aylanadi. Zamonaviy maktablar muammolarga o‘z yechimini yarata oladigan, ijtimoiy-madaniy modernizatsiya doirasida zarur bo‘lgan barcha jarayonlarni amalga oshira oladigan pedagog kadrlarga juda muhtoj ekanini ko‘rsatib qo‘ydi. Shunga ko‘ra, ijtimoiy intellekti yuqori, ijtimoiylashuvi stabil kadrlar masalasi ham yetakchi o‘rinlarga ko‘tarilmoqda.

2. Bo‘lajak ingliz tili fani o‘qituvchilarining lingvomadaniy kompetentligi yuqoriligi natijasida ularning ijtimoiy intellekti bosqichma-bosqich rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Ijtimoiy intellekt sohasidagi tadqiqotlar turli jihatlarga, jumladan, empatiya, istiqbolga ega bo‘lish, hissiy intellekt, ijtimoiy idrok va ijtimoiy bilishga qaratilgan. Empatiya boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunish va baham ko‘rish qobiliyatini anglatadi, istiqbolga ega bo‘lish esa, boshqa odamning nuqtai nazarini qabul qilish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Hissiy intellekt o‘z his-tuyg‘ularini anglash va boshqarishni, shuningdek, boshqalarning his-tuyg‘ularini tan olish va tushunishni o‘z ichiga oladi.

3. Ijtimoiy idrok boshqalar haqida to‘g‘ri taassurotlar va mulohazalarni shakllantirish uchun odamlarning yuz ifodalari, tana tili va ovozli signallar kabi ijtimoiy ma'lumotlarni qanday talqin qilishini va ma'nosini o‘rganadi. Ijtimoiy bilish ijtimoiy o‘zaro ta'sirlar asosidagi kognitiv jarayonlarni, shu jumladan, atributlar, e’tiqodlar, munosabatlar va stereotiplarni o‘rganadi.

4. Ijtimoiy intellekt sohasidagi tadqiqotlar uning hayotning turli sohalarida, jumladan, shaxslararo munosabatlar, muloqot, yetakchilik va qaror qabul qilishda hal qiluvchi rolini ko‘rsatdi. Yuqori ijtimoiy intellektga ega bo‘lgan shaxslar mazmunli munosabatlarni shakllantirish va qo‘llab-quvvatlash, nizolarni hal qilish va turli xil ijtimoiy kontekstlarga moslashishda ustunlikka ega.

Bundan tashqari, ijtimoiy intellekt nafaqat tug‘ma xususiyatdir, balki tajriba, ta'lim va amaliyot orqali o‘stirilishi va rivojlanishi mumkin. Ijtimoiy intellektni oshirishga qaratilgan trening dasturlari va tadbirlari shaxslarning ijtimoiy ko‘nikmalarini, hissiy ongini va ijtimoiy muammolarni hal qilish qobiliyatlarini

yaxshilashda istiqbolli natijalarni ko‘rsatdi.

# II BOB. BO‘LAJAK INGLIZ TILI FANI O‘QITUVCHILARIDA SOTSIAL INTELLEKTNI TADQIQ ETISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

## 2.1 Talabalarda sotsial intellekt namoyon bo‘lishining psixologik xususiyatlari

Ijtimoiy intellektni o‘rganishning tadqiqot metodikalarini umumiy sharhi xususida o‘tgan paragrafda aniqlik kiritib o‘tgan edik. Shu sababli bevosita tadqiqot natijalari sharhiga murojaat etaylik (2.2-jadval).

Biz Dj.J.P. Gilford metodikasidan bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining ijtimoiy intellektini o'rganish uchun foydalanamiz, chunki uning subtestlari alohida shaxsning kommunikativ va lingvistik jihatlariga qaratilgan. Umumiy intellekt kontseptsiyasi va metodikaning tabiatini hisobga olgan holda, o'quvchilarning samarali muloqot qilish va ijtimoiy vaziyatlarga moslashish qobiliyati, boshqalarni tushunish va o'zaro munosabatda bo'lish uchun yaxlit intellektual salohiyati bilan bir qatorda, o'rtacha diapazonga to'g‘ri keladi. Bu shuni ko'rsatadiki, talabalar o'zlarining ta'lim yo'llari davomida umumiy va ijtimoiy intellektni rivojlantirishga doimo ustuvor ahamiyat berishlari kerak.

**2.2-jadval.**

**Talabalarning ijtimoiy intellekt ko‘rsatkichlari**

| № | Intellekt komponentlari | M | δ |
|---|---|---|---|
| 1. | Umumiy intellekt | 93,82 | 10,24 |
| 2. | Muloqot ishtirokchisining hissiyoti, fikri va niyatlarini tushunish | 3,50 | 0,52 |
| 3. | Noverbal hulq-atvorni tushunish | 3,05 | 0,84 |
| 4. | Verbal ekspressiyani tushunish | 3,60 | 0,62 |
| 5. | Shaxslararo o‘zaro ta’sirlashuvni tahlil etish | 2,74 | 0,89 |

Ularning umumiy intellekt (IQ) darajasi o‘rtacha bo‘lganligi sababli, ular ijtimoiy intellektni aks ettiruvchi mezon bo‘lgan “Suhbatdoshning his-tuyg‘ulari, fikrlari va niyatlarini tushunish” bo‘yicha o‘rtacha kuchli darajani (3,50±0,52) ko‘rsatdi. Bu shuni anglatadiki, talabalar shaxslararo dinamikani oldindan bilish va voqealar rivojini bashorat qilish qobiliyatiga ega, garchi bu jihat yanada

rivojlantirishni talab qiladi. Agar talabalar ushbu subtestda yuqori saviyada ishtirok eta olsalar, ular o'zlarining fotosuratlarini tekshirish orqali notanish shaxsning batafsil tavsifini berishlari mumkin edi. Afsuski, talabalarning ijtimoiy intellektning ushbu jihati bo'yicha malakasi o'rtacha darajadan yuqori.

Bundan tashqari, talabalar og‘zaki bo‘lmagan xatti-harakatlarni tushunishda o‘rtacha qiymatdan yuqori bo‘lgan qiymatni ko‘rsatdilar (3,05 ± 0,84). Bu shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilar og‘zaki bo‘lmagan belgilar to‘g‘risidagi bilimlarni o‘zlashtirib, tana tilini, yuz ifodalarini va xatti-harakatlarini talqin qilish kabi og‘zaki bo‘lmagan muloqotdan foydalanish orqali o‘zlarini professional muhitga faol tayyorlaydilar. Og‘zaki bo‘lmagan signallarni baholashda bunday mahorat talabalarning faol, mulohaza yurituvchi va empatik ishtirok etishga moyilligini, shuningdek, o'zlarining his-tuyg‘ularini anglash qobiliyatini ko'rsatadi. Talabalar bu ko'nikmalarni yanada kuchaytira olsalar, bu boshqalarni tushunish va ular bilan empatiya qilish qobiliyatini oshiradi, ularning muloqotida chuqurroq aloqalarni rivojlantiradi.

O'rtacha rivojlanishiga qaramay, o'quvchilarning ijtimoiy intellektining bu jihatlari, xususan, og‘zaki ifodani tushunish (3,60±0,62) va shaxslararo o'zaro ta'sirni tahlil qilish (2,74±0,89) hali ham o'rtacha diapazonga yaqinligicha qolmoqda. Qo'shimcha ma'lumotga ega bo'lish uchun biz o'quvchilarning ijtimoiy intellektini baholashda qo'llaniladigan test mezonlari orasidagi o'zaro bog‘liqlikni tekshirishimiz mumkin (2.2-jadval). Tahlil mezonlar o‘rtasidagi ijobiy bog‘liqlikni ko‘rsatib, o‘quvchilarning “suhbatdoshning his-tuyg‘ulari, fikrlari va niyatlarini tushunish” va “og‘zaki bo‘lmagan xulq-atvorni tushunish” bo‘yicha olgan ballari o‘rtachadan yuqori ekanligini ko‘rsatadi ($r=0,399$, $p<0,05$). Bu o‘quvchilarning umumiy muhitni, suhbatdoshlarining xulq-atvorini, shaxsiy fazilatlarini baholadhlari o‘zlarining intellektual imkoniyatlari doirasida baholash qobiliyatlari bilan o‘zaro bog‘liqligini tasdiqlaydi (2.3-jadval).

**2.3-jadval.**

**Talabalar ijtimoiy intellekti munosabatlari**

| | **Sotsial intellektni aniqlash shkalasi** | **1** | **2** | **3** | **4** |
|---|---|---|---|---|---|
| 1. | Xulq-atvor natijalarini bilish | 1 | 0,401* | 0,328 | 0,584** |
| 2. | Noverbal bo‘lgan xulq-atvorni tushunish | | 1 | 0,362 | 0,614** |
| 3. | Og‘zaki bo‘lgan ekspressiyani tushunish | | | 1 | 0,341 |
| 4. | Shaxslararo o‘zaro ta’sirlashuvni tahlil etish | | | | 1 |

***Izoh:*** *1-Xulq-atvor natijalarini bilish; 2-Noverbal bo‘lgan xulq-atvorni tushunish; 3-Og‘zaki bo‘lgan ekspressiyani tushunish; 4-Shaxslararo o‘zaro ta’sirlashuvni tahlil etish; nazarda tutilgan.*

Keyinchalik, agar o'quvchilar "suhbatdoshning his-tuyg‘ulari, fikrlari va niyatlarini tushunish" qobiliyatini rivojlantirsalar, ular "shaxslararo o'zaro munosabatlarni tahlil qilish"da qiyinchiliklarga duch kelmasligi ilmiy jihatdan aniqlangan ($r=0,584$, $p<0,01$). Bundan tashqari, og‘zaki bo'lmagan xatti-harakatlarni tushunish qobiliyatini oshirish orqali ular shaxslararo o'zaro ta'sirlarni tahlil qilishda o'zlarining malakalarini oshirishlari mumkin ($r = 0,614$, $p<0,01$). Umumiy intellekt natijalari va ijtimoiy intellekt darajasi o'rtasidagi bog‘liqlik shaxsning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega ekanligi tabiiydir. Bizning tahlilimiz orqali biz o'quvchilarning ijtimoiy intellektini boshqa intellektlar bilan o'zaro bog‘liqligini tekshirish uchun qo'llaniladigan barcha metodologiyalar o'rtasidagi o'zaro bog‘liqlikni muvaffaqiyatli aniqladik *[2.4-jadvalga qarang]*.

Talabalar muloqot qilayotgan sherigining his-tuyg‘ulari, fikrlari va niyatlarini tushunishi va ularning umumiy intellekti ($r=0,402$, $p<0,05$), shuningdek, og‘zaki bo'lmagan xatti-harakatlarini tushunishlari va murakkab analogiya testlarida ishlashlari o'rtasida korrelyatsiya mavjud. ($r=0,366$, $p<0,05$). Bu shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning kognitiv intellektini oshirish suhbatdoshning his-tuyg‘ulari, fikrlari va niyatlarini tushunishga yordam beradi. Xuddi shunday, murakkab mantiqiy munosabatlarni farqlash qobiliyati ularning og‘zaki bo‘lmagan xatti-harakatlarini tushunishlariga yordam beradi.

Talabalarda ijtimoiy intellektning yosh bilan bog‘liq psixologik jihatlariga ta’rif berishda Dj.Gilford metodikasining natijalariga suyanib ish ko‘rdik. Metodika bo‘yicha talabalar 4 ta subtestini yechdilar va har bir subtest (omil)ga max. 5 ball, min. 0 ball qo‘yib chiqildi. Shundan so‘ng har bir subtest bo‘yicha yig‘ilgan ballarning umumiy yig‘indisi topildi.

Bunda birinchi bosqich talabalari umumiy 10 ball, ikkinchi bosqich talabalari 10 ball, uchinchi bosqich talabalari 14 ball, to‘rtinchi bosqich talabalari 18 ball to‘pladilar.

Birinchi bosqich talabalari eng katta ballni birinchi omil bo‘yicha to‘plaganlar, ya’ni ular intellektlar o‘rtasidagi munosabatlar dinamikasini tushunadilar, odamlar o‘rtasidagi qiyin holatlarni tushuna oladilar, ularning shakllanishdagi mantiqini tushunadilar, boshqa kishilarni bu holatga jalb etilsa, holatning o‘zgarishi mohiyati nimalardan iborat ekanligini tez anglab oladilar, nimalardan iborat ekanligini his eta oladilar, lekin shu bilan bir qatorda, ular o‘zlarini tutishlari qanday holatga olib kelishi mumkinligini anglab yetmaydilar. Ular juda ko‘p xatolarga yo‘l qo‘yadilar, noqonuniy xatolar ham shular jumlasidandir.

Ikkinchi bosqich talabalari ham to‘rtinchi omil bo‘yicha eng katta ballni to‘plaganlar. Eng past ko‘rsatkich ikkinchi omil doirasida to‘plangan. Bunga ko‘ra ular muloqotda ochiq va do‘stona emasliklarini, boshqa odamlarning noverbal xulq-atvorlaridan kelib chiqqan holda ularning emotsional holatlari va ulardan nimalar kutish mumkinligini yaxshi tushunmasliklarini, ko‘proq verbal signallar orqali ma’lumotlarni tushuna olishlarining guvohi bo‘ldik va aniqladik.

Uchinchi bosqich talabalarida birinchi va to‘rtinchi , ikkinchi va uchinchi omillar natijalari bir xil ko‘rsatkichlarni ko‘rsatdi. Bunga ko‘ra, ularda noverbal xulq-atvorni tushunish va verbal ekspressiyani tushunish yaxshi rivojlangan. Demak, ular boshqa odamlarning noverbal hulq-atvoridan kelib chiqib, ularning emotsional holatlari va ulardan nimalar kutish mumkinligini yaxshi tushunadilar. Ularda ham talaffuz, ham boshqalarni eshitish qobiliyati juda kuchlidir. Ular odamlarni bir ko‘rishdayoq nimalarga qodir ekanligini aniqlay oladilar. Uchinchi bosqichga kelib natijalarda birmuncha o‘sishlar guvohi bo‘dik.

To‘rtinchi bosqich talabalarida esa, ijtimoiy intellekt ko‘rsatkichi ancha yuqori va ijobiy ko‘rinish kasb etdi. Ularda birinchi va uchinchi, ikkinchi va to‘rtinchi omil doirasida bir xil ko‘rsatkichlar guvohi bo‘ldik. Lekin, uchinchi va to‘rtinchi ko‘rsatkich bo‘yicha ular max ballni to‘play oldilar. Demak, to‘rtinchi bosqich talabalari boshqa notanish kishilarning yuzida va harakatlarida yuz berayotgan o‘zgarishlardan, mimikasi, qo‘l harakatlari va boshqa emotsional harakatlari orqali ularning holatlari va nimalar demoqchi ekanligini oldindan bila oladilar. Shaxslar o‘rtasidagi munosabatlar dinamikasini tushunadilar, suhbatdoshi nimani nazarda tutayotganini, uning maqsadi va ehtiyojlarini aniq bila oladilar, “Men” konsepsiyasini chuqur differensiatsiya qila oladilar, chuqur reflekslarga egalar, o‘zlarini faxrlanib his etadilar. Ular boshqa bir kishining fotosuratiga qarab, uning nafaqat xarakteri, balki uning nimalarga qodirligi, mayda ikir-chikrlarini ham aytib bera oladilar.

## 2.2. Bo‘lajak ingliz tili fani o‘qituvchilarida sotsial intellekning korrelyatsion bog‘lanishlari

Biz tadqiqotimizda sotsial inellektni o‘rganishimizga sabab bo‘lgan tomoni o‘tgan asrning oxirlarida insonning kasbiy faoliyati uchun faqat aqliy intellektning o‘sishi o‘zi yetarli emasligi borasidagi fikrlarning paydo bo‘lganligi, bugungi kunda har bir mutaxassis sifatida shakllanayotgan shaxs o‘z sohasi uchun kerakli bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishga qobiliyatli subyekt bo‘libgina qolmay, u ijtimoiy munosabatlarga moslashuvchan, boshqalarning kechinmalarini his eta oladigan, ularga o‘z ta’sirini o‘tkazuvchi, munosabatlarga kirishimli, o‘z xatti-harakatlarini boshqalarga moslashtira oladigan shaxs bo‘lishini ham taqozo etishi masalasi ko‘ndalang bo‘lib qoldi. Intellekt turlari ko‘p bo‘lib, ular o‘zlarini har xil ko‘rinishda namoyon etadi.

Aksincha IQ koeffitsienti yuqori bo‘lgan inson umumiy mazmunda mutlaqo talabga javob bermasligi yoki ijtimoiy jihatdan yetuk bo‘lmasligi mumkin. Ba’zi oddiy ko‘cha bolasi oliy ma’lumotli yoki akademik klassifikatsiyasiga ega bo‘lgan shaxslarga nisbatan kundalik turmush tashvishlari bilan bog‘liq masalalarni yaxshiroq tahlil etishi mumkin. Chunki u ma’lumotlilik darajasi va IQ test natijalarisiz tahlil etish qobiliyatiga egadir. Biz shuni hisobga olgan holda talabalarning intellekti

diagnostikasi muammosini ikki jabhadan o‘rganish masalasiga e’tibor qaratdik.

O‘tgan bobimizda talabalarning umumiy (aqliy) intellekti va boshqa bir qator intellektlari bo‘yicha izlanish natijalarini sharhlagan bo‘lsak, mazkur bobda umumiy va boshqa intellektga mos tarzda talabalarning ijtimoiy intellektini ham diagnostika qilamiz va uning dinamikasiga ham e’tibor qaratamiz *[2.4-jadvalga qaralsin]*.

Umuman, ijtimoiy intellektning yoshga qarab o‘sib borishini kuzatishimiz mumkin. Buning sababi talabalar aynan oliygohlarda tahsil olayotganliklaridadir. Chunki, ular o‘qishning dastlabki yillaridayoq inson-inson sohasini o‘rganib, ularga to‘g‘ri konsultatsiya bera olish ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar. Oliy ta’lim standarti ulardan shuni talab qiladi.

Shunga ko‘ra, birinchi bosqich talabalarining ijtimoiy intellektini o‘rganish metodikalari bo‘yicha ko‘rsatkichlarida muloqot ishtirokchisining hissiyoti, fikri va niyatlarini tushunishi mezoni bilan verbal ekspressiyani tushunishi hamda shaxslararo o‘zaro ta’sirlashuvni tahlil etish omillari o‘rtasida korrelyatsion munosabat kuzatildi. ($r=0,562$; $p < 0,01$, $r =448$; $p < 0,01$).

